

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI
VAZIRLIGI

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti

TARIX FAKULTETI

“UMUMIY TARIX”

KAFEDRASI

Shodiyev MUZAFFAR

**“Xi – xv asrlarda anqliyaning ijtimoiy -
iqtisodiy rivojlanishi”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISH

NAVOIY – 2011

Tarix fakulteti

(fakultet nomi)

TARIX.

(fanning nomi)

SHODIYEV MUZAFFARNING

(Talabaning ismi, sharifi)

HIMOYA VAQTI _____

<i>Mavzuning dolzarbligi</i>	<i>Bajarilgan ishning mustaqillik darajasi</i>	<i>Amaliy ahamiyati</i>	<i>Adabiyotlardan foydalanish darajasi</i>

<i>Ishning rasmiylashtirilishi</i>	<i>Bitiruv malakaviy ish himoyasi</i>	<i>Umumiy ball</i>	<i>%</i>

DAK raisi:

DAK a'zolari:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
Navoiy davlat pedagogika instituti

Tarix fakulteti
"Umumiy tarix" kafedrası

Talaba: Shodiyev Muzaffarga bitiruv malakaviy ishini bajarish yuzasidan

T O P S H I R I Q

Mavzu: "XI – XV asrlarda Angliyaning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi"

1 – Bob yuzasidan:

Angliyaning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishiga doir ma'lumotlar

2 – Bob yuzasidan:

Angliyaning normandlar tomonidan istilo qilinishi _____

Xulosa

qismida: _____

Ilmiy rahbarlar

xulosasi: _____

Ilmiy rahbar imzosi: _____

Kafedra mudiri imzosi: _____

" 26.09. " _____ 2010 yil

XI – XV asrlarda Angliyaning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi

Kirish

I BOB. XI – XIII asrlarda Angliyaning ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining xususiyatlari

1&. Angliyaning normandlar tomonidan istilo qilinishi va uning oqibatlari

2&. XI – XIII asrlarda Angliya qishloq xo'jaligi va shaharlari

3&. Mamlakat len tizimi va siyosiy taraqqiyotining xususiyatlari

II BOB. XIII asrning ikkinchi yarmi – XV asrlarda Angliyaning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti

1&. Toifaviy monarxiyaning paydo bo'lishi. XIII–XIV asrlarda Angliya parlamenti.

2&. XIV – XV asrlarda Angliya qishloqlarida iqtisodiy va ijtimoiy siljishlar

Foydalanilgan adabiyotlar

Xulosa

Kirish

Zamon talabi shuki, professor va o`qituvchilar o`zlarida mavjud bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan, balki xarijiy mamlakatlar tajribasini qunt va sabot bilan o`rganib, mag`zini chaqib, undan keyin o`z talabalariga saboq berishlari lozim.

I.A. Karimov

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ta'kidlab o`tganidek, «Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, fikrlar rang-barangligini o`z hayotimizda yanada kengroq joriy qilishda ko`ramiz»¹. Mustaqillik davriga qadar kommunistik mafkura aqidalariga va tamoyillariga asoslangan sho`ro tarixshunosligida nafaqat o`zbek xalqining, balki jahon tarixining ham juda ko`p muhim masalalari noto`g`ri va buzib talqin etilgani ma'lum. Bu davrda yaratilgan darsliklar va o`quv qo`llanmalarda jamiyatni sinflarga bo`lib o`rganish, mamlakat hukmdoridan tortib oddiy saroy xizmatkorlarigacha bo`lgan toifalarni xalqdan ajratib, ularni jamiyatning xalqqa qarshi bo`lgan, uning manfaatiga zid faoliyat olib boradigan alohida sinf deb qarash, sinflar o`rtasidagi tinimsiz kurashlarga tabiiy tarixiy jarayon sifatida qarash va tushuntirish hukmron edi. Shuning uchun qo`liga ketmon, o`roq yoki cho`qmor tayog`ini ushlab mulkdor toifani o`ziga o`xshash mulksizga aylantirish uchun otlangan dehqon

¹ Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch

«Ma'naviyat», 2008. 114 - bet.

timsoli butun o`rta asrlar tarixining bosh qahramoniga aylangan edi. Natijada bir yoqlama, o`quvchi hafsalasini pir qiladigan urushlar va davlatlar tarixi yaratilib, haqiqiy tarix, yaxlit tarix barbod etildi. Shu sababli ham demokratik taraqqiyot yo`lidan borayotgan mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq hukumatimiz va Oliy ta'lim vazirligi rahbariyatlari tomonidan Davlat Oliy va o`rta maxsus ta'limi tizimini jahon standartlari talablariga mos keladigan darslik va o`quv qo`llanmalarini yaratish asosida rivojlantirish, vatanimizning o`sib kelayotgan yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash vazifasi qo`yildi.

Jahon xalqlari tarixini o`rganganishda sho`rolar davrida hukmron bo`lgan g`oya, ya'ni o`tmishdagi faqat xunrezlik voqealariga, urush va vayronagarchiliklarga tarixni to`ldirib tashlashdan voz kechishimiz zarur. Tarixni xolis yoritishimiz kerakki, zero haqqoniy tarix tillarga so`z baxsh etuvchi, kunpayakun saltanatlarni qayta yaratuvchi, o`tib ketgan asrlar silsilasini butun hayajonlari, egalari bilan ko`z o`ngimizda namoyon etib, hayotimiz sarhadlarini kengaytiruvchi mo`jizadir. Uning ma'naviy qudrati ila biz barcha kechmish zamonlarning odamlariga hamdamu hamnafas bo`lamiz, ular bilan goh suyib, goh kuyib, dilimizni rag`batlantiruvchi, hislarimizga ozuqa beruvchi turli voqealar, fe'l – atvorlar dunyosiga oshno bo`lamiz. Chunki, to`g`ri anglab etilgan, chuqur idrok etilgan tarix ulkan ma'naviy kuchga aylanib, buyuk kelajakni yaratish omili bo`ladi.

Bizning olam va insoniyat tarixi haqidagi tushunchalarimizni kengaytirishimizning yagona yo`li olamni tadqiq etish, olamni anglash, uni tushunishdir. Shunday ekan, biz umumjahon tarixini

o'rganish, umuminsoniyat o'tmishini tadqiq etish orqali nafaqat dunyo tarixi haqidagi tasavvurlarimizni, tushunchalarimizni boyitamiz, balki, o'z ajdodlarimiz o'tmishini organamiz, olam haqidagi tasavvurlarimizni boyitib, xulosalarimizga yana ham aniqlik kiritamiz. Masalan, biz Angliya tarixini o'rganar ekanmiz, bu mamlakat bilan madaniy, iqtisodiy va savdo aloqalarimiz uzoq o'tmishga borib taqalishini guvohi bo'lamiz. Yevropa hukmdorlari, jumladan Angliya qirollari ham Amir Temur davrida bizning ota- bobolarimiz bilan savdo va madaniy aloqalar o'rnatilishiga katta qiziqish bilan qaraganlarini guvohi bo'lamiz. Jumladan, Angliya qiroli Genrix IV Lankasterlik 1403 yili Amir Temur va uning o'g'li Mironshohga yo'llagan maktubida shunday misralarni o'qiymiz: «...Siz zoti oliylariga shuni ma'lum qilamizki, biz o'zaro aloqalarimiz doirasini kengaytirish, davlatlarimiz savdogarlarining bir - birlari bilan ilgari- ajdodlarimiz davrida bo'lganidek uchrashib turishlarini ta'minlash niyatidamiz. Bu gaplarni, ulug' podshoh, Sizga bo'lgan do'stligimizning ramzi sifatida aytmoqdamiz ... Minnatdorlik ila chin qalbdan so'rar edikki, bundan so'ng savdogarlarimizning mamlakatingizda bermalol savdo- sotiq qilishlariga imkon tug'ilsa ...» (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligiga safari chog'ida ingliz sharqshunoslari qiroli Genrix IV Lankasterlikning Amir Temur va uning o'g'li Mironshohga 1403 yili yo'llashgan maktublarining fotonusxalarini taqdim etgan edilar). Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov haqli ravishda «Jahon tarixi rivojlanish taraqqiyoti bilan o'z yurtimiz tarixini qiyoslab to'g'ri xulosalar chiqarish davrimiz talabidir», - deb

ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan jahon tarixi fani insoniyat tarixi haqida yaxlit va aniq tasavvur, tushunchalar berib, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

1992 yil 18 fevralda O'zbekiston va Buyuk Britaniya o'rtasida diplomatik munosabat o'rnatilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda Buyuk Britaniya sarmoyasi ishtirokidagi 115 ta korxona faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistondan Buyuk Britaniyaga paxta tolasi, qimmatbaho toshlar, qora metallar, volfram eksport qilinadi;

Buyuk Britaniyadan O'zbekistonga Mexanik va elektr asbob-uskunalar, qand lavlagi, plastmassa, mineral yoqilg'i, farmasevtika mahsulotlari, mebel, tamaki, kimyoviy birikmalar, sut mahsulotlari olib kelinadi.

I BOB. XI – XIII asrlarda Angliyaning ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy tariqqiyotining xususiyatlari

1&. Angliyaning normandlar tomonidan istilo qilinishi va uning oqibatlari

XI asr o'rtalarida Angliyada asosan yer egaligi munosabatlari hukm surgan bo'lishiga qaramay, aholining yer egalari va qaram aholigi ajralishi to'la yakun topmagan edi. Mamlakatning shimoli-sharqiy qismida dehqonlarning katta qismi o'z erkinligini saqlab qolgan, yer egalari qaram dehqonlar esa yagona krepostnoylarga aylanmagan edi.

Angliyada feodallasish jarayonining tugallanishi frank-normandlar istilosi bilan bog'liq edi. Frantsiyaning Normandiya gertsogligidan chiqqan 15 ming ritsarlar – asosan normand va frantsuzlar 1066 yilda Normandiya gertsogi Vilgelm Fotih rahbarligida Angliya taxtiga da'vo qilib Angliyaga bostirib kiradi¹. Normandiya gertsogi Vilgelmning Angliya taxtiga da'vo qilishiga 1066 yilda inglizlar qiroli Eduardning vafoti sabab bo'ldi. Qirol Eduardning o'g'li bo'lmagani uchun taxtga merosxo'r bo'ladigan voris qolmadi. Uning yaqin qarindoshlari ham yo'q edi. Shu sababli Londondagi Vestminster abbatligida yig'ilgan Uitenagemot («Donolar kengashi») yirik anglo-sakson oilasi vakili Garoldni yangi qirol qilib sayladilar. Bu Eduardga yaqinligi bo'lgan Normandiya gertsogi Vilgelm tomonidan, qonunsiz va zo'ravonlik bilan amalga oshirilgan hodisa deb baholandi. Gertsog Vilgelm hokimiyatni kuch bilan olishga qaror qildi. Angliya cherkovini papalarga itoat ettirishni ko'zlagan papa bu istiloga oq fотиha

¹ Qarang: Удальцова З История средних веков. М., «Просвещение». 1986. С.215.

beradi. Anglo-saks ruhoniylarining o'zlarini mustaqil tutishlari va frantsuzlar kabi papa hokimiyatiga bo'ysinmaganligi Papalikning Vilgelm I tomonida turishiga sabab edi. Normandlarni quvvatlash yo'li bilan papalik Angliya ustidan o'z ta'sirini kuchaytirmoqchi bo'ldi va normandlar hukmronligi o'rnatilishi bilan shunga muvaffaq ham bo'ldi. Shunday qilib, 1066 yil sentyabrda Vilgelm La – Manshdan o'tib, Angliyaning janubidagi Gastings portiga tushadi. Yangi qirol Garoldning o'z drujinasi va dehqonlardan tuzilgan qo'shini Normandlarning og'ir qurollangan ritsarlariga bardosh bera olmaydi. Anglosakslar qattiq qarshilik ko'rsatishiga qaramasdan, 1066 yil 14 oktyabrda engiladilar, qirol Garold halok bo'ladi. Vilgelm Londonni egallagach Uitenagemot “Donishmandlar kengashi” tomonidan qirol deb e'lon qilinadi. Vilgelm (Uilyam I) «Fotih» nomi bilan Angliya taxtiga (1066-1087yy.) o'tirdi.

Normand baronlariga butun mamlakatni bo'ysundirish uchun bir necha yil kerak bo'ladi. Anglosakslardan yerlar tortib olinishi va erkin dehqonlarni krepostnoblarga aylantirilishiga qarshi mamlakat shimoli va shimoli–sharqida 1069 va 1071 yillarda dehqonlar va feodallar ishtirokida kuchli qo'zg'olon bo'lib o'tadi. Qo'zg'olon bostirilib, York vodiysi va Darem grafligi vayron qilinadi, qishloqlar yoqib yuboriladi, aholisi qirib tashlanadi. Bu yerlarda uzoq yillar hech zot yashamagan. Faqatgina Sistertsion ordeni tomonidan XII asrda yaylovlarga aylantirilgandan keyingina bu yerlar yana jonlanadi.

Vilgelm I davrida qirol saroyi va boshqarish bo'g'inlarida frantsuz tilining qo'llanilishi, mahalliy aholiga nisbatan og'ir siyosat bosqinchilarga bo'lgan norozilikning kuchayishiga olib keldi. Vilgelm

haydaladigan erlarning 7 dan 1 qismini qirollik domeni sifatida o`zida qoldirdi. Uning tomonidan «Yangi o`rmon to`g`risida» qonunning e'lon qilinishi bu norozilikning yanada kuchayishiga sabab bo`ladi. Bu qonunga ko`ra, mamlakat hududidagi juda katta o`rmon va tekisliklardan iborat maydon qirolning ov qiladigan maydoni deb e'lon qilindi. Qirolga qarashli deb e'lon qilingan joylarda ov qilishga jur'at etgan dehqonlarning ko`zini o`yib olardilar. Natijada aholi normandlar vakillarini o`ldira boshladilar. Shundan so`ng Vilgelm «normandlarga su'iqasd qilgan kishilar harakati qirolning o`ziga su'iqasd qilgan» deb baholanishini va shunga muvofiq jazolanishini e'lon qildi.

Normandlar istilosi Angliyada yirik yer egalarini, feodal tabaqasini yangiladi, ya'ni anglo-saks feodallarining deyarli barcha mulklari tortib olindi va ular Vilgelm I bilan kelgan normand va frantsuz feodallariga bo`lib berildi. Angliyadagi yirik normand feodallari «baronlar» deb ataldi. Mamlakatdagi barcha yerlar feodal mulki hisoblangan xo`jalikka - «manor»larga bo`lindi. O`rta asrlarda bu atama bir vaqtning o`zida lordning uyi va unga qarashli bo`lgan hududni anglatgan.

Angliyada shaharlarning ham ko`pchiligi qirol domenida joylashgan edi. Shaharlar misolida boy resurslarga egalik Angliyada keyinchalik qirol hokimiyatining kuchli bo`lishishimg sharti edi.

Vilgelm I davlatni boshqarish tizimiga jiddiy o`zgarishlar kiritdi, ya'ni ma'muriy hududlar bo`lgan grafliklar oldingidek sen`orlar tomonidan emas, balki sheriflar



Vilgelm Fotih. 1066-1087 yy.

tomonidan boshqariladigan bo`ldi. Sherif lavozimi anglo-saksonlar jamiyatida ham mavjud edi va u ko`proq graflik oqsoqoli ma'nosida ishlatilgan. Vilgelm I tomonidan tayinlangan sheriflar qirolning grafliklardagi vakolatli vakili bo`lib, ularning asosiy vazifasi tartibni saqlash, tartibbuzarlarni jazolash, graflikdagi qirol mulkini boshqarish, urushlar davrida harbiy otryadlar to`plash va unga qo`mondonlik qilish edi. Xullas, graflikdagi sud, harbiy va ma'muriy hokimiyat sheriflar qo`lida edi.

Bundan tashqari, Angliyadagi barcha cherkovlarda yuqori diniy lavozimlar anglo-sakslardan tozalanib frantsuz-normand ruhoniylari qo`liga berildi. Vilgelm I diniy sudni alohida qilib ajratdi. Uning buyrug`i bilan sherif va amaldorlarning cherkov sudiga aralashishi ta'qiqlandi. Shuning bilan birga, Rim papaligining ingliz cherkovi ustidan hukmronlik qilishga bo`lgan barcha da'volari rad etildi. Vilgelm papa Grigoriy VII ga vassalik qasami ichishdan bosh tortdi va ingliz cherkovini qirolidan boshqa hech kim nazorat qilmasligini hamda uning roziligisiz ingliz cherkovining papaga va papa qarorlariga bo`ysunmasligini e'lon qildi.

Natijada normandlar istilosi natijasida hukmron sinfnings yuqori qatlami yangilandi¹. Feodal tabaqaning shaxsiy tarkibining o`zgarishi Angliyada kuchli qirol hokimiyati bo`lishini ta'minladi. Yirik feodallar – baronlar istilo jarayonida o`z yerlarini bevosita qirolidan olganliklari uchun qirol bilan vassalik iplari orqali mustahkamroq bog`langan edilar. Qirolning bevosita vassali hisoblangan baronlar, qirollikka feodal soliqlarini to`lashlari va harbiy xizmat o`tashlari kerak edi. Faqatgina

¹ Qarang: Удальцова З История средних веков. М., «Просвещение». 1986. С.216.

yirik feodallar (Angliyada yirik feodallarni baronlar deyishgan) emas, balki ularning vassalari boʻlgan ritsarlar ham qirolga sadoqati toʻgʻrisida qasamyod qilishga majbur edilar.

Bu holat Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi sabablaridan biri edi. Dastlabki vaqtlarda normandlar dushmanlar ichida, mahalliy aholining dahshatli qurshovi ichida qolganliklarini sezardilar. Ularga oʻz yer va mulklarini saqlash uchun kuchli qirol hokimiyati kerak edi. Kuchli qirol hokimiyatigina ularga Angliya xalqini oʻzlariga itoat ettirishga yordam berishini bilardilar.

Nafaqat normandlarga, balki oʻz mulkini saqlab qolgan anglo-saks feodallariga kuchli qirollik hokimiyati kerak edi. Chunki, ijtimoiy ziddiyatlar kuchayib ketgan bir davrda bu kuchlarni bostirish va feodallarni himoya qila olish qudratiga ega boʻlgan kuchli qirol hokimiyati ular uchun hayotiy zaruriyat edi. Kuchli qirol hokimiyati, ayniqsa, mayda va oʻrta feodallarga zarur edi. Chunki, ular oʻz kuchlari bilan dehqonlarga ham qarshi kurasha olmas, ikkinchi tomondan baronlarga ham qarshi chiqa olmas edilar. Shuning uchun ular Vilgelm va uning amaldorlarini qoʻllab quvvatladilar, ularning yirik feodallarga qarshi kurashlarida yordamlashdilar. Angliyada cherkov ham qirolni qoʻllab-quvvatladi. Mamlakatning istilo qilinishi va qoʻzgʻolonning bostirilishi natijasida, eski anglo-saks feodallari almashtirilgani kabi ingliz cherkovining yepiskoplari ham batamom almashtirildi. Avvalgi ingliz ruhoniylari oʻrnini frantsuz yepiskoplari egalladi. Vilgelm I Kenterberi arxiyepiskopi asli italiyalik Lanfrankni tayinladi. Anglo-saks tilida ibodat qilish taʼqilandi, monastirlar frantsuzlar namunasida qayta oʻzgartirildi, Rim cherkovi qoidalari qonunga aylandi. Demak,

Angliyada bu davrda qirol hokimiyatining kuchayishidan aholining ko'pchilik qatlami manfaatdor bo'lgan edi.

Angliyada feodal tartiblarni mustahkamlashda 1086 yil Vilgelm o'tkazgan yer ruyxati muhim o'rin tutadi. Ruyxat natijalari xalqda «Dahshatli sud kitobi» deb nom oladi, chunki ma'lumot beruvchilar qiyomat kunidagi kabi hech narsani yashirmasdan to'g'ri gapirishi kerak edi. Vilgelm Angliyaning barcha shahar va qishloqlariga maxsus vakillar yuboradi. Ularning vazifasi mamlakatning iqtisodiy hayoti haqida ma'lumot yig'ish edi. Savollar turlicha berilar edi: Yer qancha? Uning egasi kim? Undan keladigan daromad qancha? Pluglarning soni qancha? Egalari kim? Qoramol, qo'y va cho'chqalarning soni qancha? Bu ro'yxatga olish aholi tomonidan keskin norozilik bilan kutib olinsada, hech bir kishi ochiq qarshilik ko'rsata olmadi.

Qirol tomonidan o'tkazilgan aholini ro'yxatga olishdan quyidagi maqsadlar ko'zlangan edi: 1) mulk solig'ini tartibga solish, mulkning hajmi va daromadining qanchaligini aniqlash maqsadida kerakli ma'lumotlarni yig'ish va shunga qarab o'z vassallaridan harbiy xizmat talab etish; 2) qirolni uning vassallari ega bo'lgan boyliklar hajmi va taqsimlanishi, vassallari ega bo'lgan yer va daromadlari to'g'risidagi axborot bilan tanishtirish edi. Qirol o'zining barcha aholisiga soliq solish uchun ular to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lishni xohladi. «Dahshatli sud kitobi» tarixiy hujjat sifatida o'sha davrdagi Angliyaning ijtimoiy ahvoli va tuzumi haqida qimmatli manba bo'lib, unda mamlakatdagi 38 ta graflikdan 34 tasi to'g'risida aniq ma'lumotlar berilgan.

XI asrda Angliya qishloq xo`jalik mamlakati edi. Unda feodal yer-mulki (manor) iqtisodiyotning asosini tashkil etgan. Shunday manorlarning eng yiriklaridan bir qanchasi bevosita qirolning mulki bo`lgan, qolganlarini u o`zining ko`p sonli diniy va dunyoviy vassallariga in'om etgan. «Dahshatli sud kitobi» yer egalarining ijtimoiy guruhlarga bo`linganligini va ularning sonini ham aniqlab beradi.

Unga ko`ra, Angliya aholisining 38 foizi villanlar, 9 foizi qullar, 12 foizi erkin kishilar, 32 foizi bordariylar va kottarlarga mansub bo`lishgan¹. Ro`yxatga lordlar va ularning vassallari, manorlardagi mansabdor ruhoniylar, monaxlar, savdogar va hunarmandlar, yersiz yollanma ishchilar va boshqa ayrim toifa vakillari kirmaganlar.

«Dahshatli Sud kitobi»da ijtimoiy guruhlarning o`rni, majburiyatlari aniq belgilab berilishidan tashqari, ulardan o`ndiriladigan soliqlar miqdori va yirik yer egasining qo`l ostida ishlaydigan, asoratga solingan kishilarga nisbatan munosabati qanday bo`lishi kerakligi ham ko`rsatilgan.

XII asr mobaynida turli qaramlikdagi dehqonlarning hammasi villanlarga (qaram dehqon) aylana boradi. Shunday qilib, Angliya uchun normandlar istilosining eng muhim natijalari quyidagilardan iborat bo`ldi:

anglo-sakslar davridan rivojlanib kelayotgan feodallashtirish jarayoni tezlashdi va tugallandi. Normandlar bosqinchiligi qirol hokimiyatini kuchaytirdi va Angliyada markazlashgan kuchli feodal davlatning tashkil topishiga va taraqqiyotiga ko`maklashdi. Chunki feodal zulmning keskin kuchayishi natijasida mahalliy aholining normandlarga nisbatan

¹ Qarang: Pirimqulov Sh O`rta asrlarda Angliya. Samarqand., 2003. 213-bet.

noroziligi va dushmanligining kuchayishi, hokimiyatni markazlashtirishni taqoza qilar edi.

Angliyaning qit'a bilan aloqasi kuchayadi, ichki va tashqi savdo rivojlanadi, shaharlar tez o'sadi. Normandlar hukmronligining qaror topishi ingliz dehqonlari umumiy ahvolining yomonlashuviga, feodal qaramlik munosabatlarining kuchayishiga olib keldi. Feodal davlatning kuchayishi erkin va yarim erkin dehqonlarning krepostnoylik asoratiga tushib qolishini tezlashtirdi va qonunlashtirdi va feodal zulmini kuchaytirdi.

Mamlakatning siyosiy yaxlitligi mustahkamlanadi va Angliyada nisbatan markazlashgan feodal davlati qaror topadi. Markazlashgan qirol hokimiyatining o'rnatilishi natijasida tartibsizliklarga chek qo'yilishi dehqonchilikning rivojlanishiga imkon berdi.

Vilgelm I davrida Yevropa tarixida birinchi marotaba umumdavlat miqyosida aholi ro'yxatining o'tkazilishi bo'ldi. To'plangan ma'lumotlar asosida, butun o'rta asrlar Yevropasida dong'i ketgan «Dahshatli sud kitobi» tuzildiki, bu eng real ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, tarixiy jihatdan bahosi yo'q xazinalar majmuasidir. Hozirga qadar tarixchilarni o'zidagi ma'lumotlarning to'la va aniqligi bilan hayratga solib kelayotgan bu manba tufayli Yevropa qit'asidagi davlatlardan faqat Angliyaninggina XI asr oxiriga qadar bo'lgan tarixiy taraqqiyotining rivojlanish jarayonini juda aniqlik bilan tasavvur qilish mumkin.

«Dahshatli sud kitobi» to'g'risida shuni aytish mumkinki, bu ayrim tarixchilar hisoblaganday sof moliyaviy hujjat, ya'ni soliqlar kitobi bo'lib qolmasdan va faqatgina normandlar istilosi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy o'zgarishlarni o'zida aks ettirish bilan chegaralanmasdan, balki

o`zi ham bu o`zgarishlarning omillaridan biri bo`ldi. Bu manba o`rta asrlardagi boshqa manbalardan o`zining ko`p tomonlama va o`ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi. Uning Angliyada feodal munosabatlarni rivojlantirishda, keng dehqonlar ommasini asoratga solish vositasi sifatida, yerlarni normand feodallari qo`liga o`tkazishni mustahkamlash, soliq tizimini takomillashtirish va feodal iyerarxiyasi tamoyili asosida Angliyaning butun ijtimoiy hayotini qaytadan o`zgartirishdagi ahamiyati birinchi darajalidir. Erkin dehqonlarning ko`p qismi 1086 yildagi aholi ro`yxatidan so`ng o`zlarining shaxsiy erkinliklaridan mahrum bo`ldilar.

Shunday qilib, normandlar istilosi mamlakatning siyosiy tarqoqligini tugatib, Angliyaning keyingi taraqqiyotiga katta ta'sir ko`rsatdi, u markaziy hokimiyatni mustahkamladi. Natijada qirol hokimiyati o`sha davrda Frantsiya va Germaniyadagiga nisbatan tasavvur qilib bo`lmaydigan tadbirlarni, ya'ni aholi ro`yxatini o`tkazish, sud islohoti va harbiy islohotlarni amalga oshirdi.

2&. XI – XIII asrlarda Angliya qishloq xo'jaligi va shaharlari

XI asrda Angliya qishloq xo'jalik mamlakati edi. Unda feodal yer-mulki (manor) iqtisodiyotning asosini tashkil etgan. Shunday manorlarning eng yiriklaridan bir qanchasi bevosita qirolning mulki bo'lgan, qolganlarini qirol o'zining ko'p sonli diniy va dunyoviy vassallariga in'om etgan. «Dahshatli sud kitobi» yer egalarining ijtimoiy guruhlarga bo'linganligini va ularning sonini ham aniqlab beradi.

Unga ko'ra, Angliya aholisining 38 foizi villanlar, 9 foizi qullar, 12 foizi erkin kishilar, 32 foizi bordariylar va kottarlarga mansub bo'lishgan¹. Ro'yxatga lordlar va ularning vassallari, manorlardagi mansabdor ruhoniylar, monaxlar, savdogar va hunarmandlar, yersiz yollanma ishchilar va boshqa ayrim toifa vakillari kirmaganlar.

Ro'yxat dehqonlarni krepostnoylarga aylanishini tezlashtiradi, Normandlar kelishiga qadar ozod bo'lgan kishilarni ular yashagan yerlar yangi egalarining qo'lga o'tganlaridan so'ng ro'yxatga olish vaqtida ularni ham qaram dehqonlar qatoriga qo'shib yubordilar, ya'ni krepostnoylarga aylanib qoldilar.

«Dahshatli sud kitobi» ma'lumotlariga ko'ra, XI – XII asr boshida Angliya aholisi 1,5 mln. kishi bo'lib, ulardan 95% qishloqlarda yashashgan. Mamlakatdagi butun aholining atigi 5% shaharlarda yashaganligi shaharlar o'sishi jihatidan Angliyaning boshqa Evropa mamlakatlaridan ancha orqada ekanligini ko'rsatadi.

Aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan. Mamlakat shimoli – sharqida chorvachilikka katta e'tibor berilgan. Bu yerdan

¹ Qarang: Pirimqulov Sh O'rta asrlarda Angliya. Samarqand., 2003. 23-bet.

chorva maysulotlari va yung asosan Flandriyaga sotilgan, flamand hunarmandlari undan movut tayyorlab, Evropaning turli davlatlariga sotganlar.

Istilodan keyin Angliya feodal votchinasi (manor) erkin qishloq jamoasini bo'ysundirib, krepstnoy jamoaga aylantiradi. Manor xo'jaligi qaram dehqonlarning barshchina mehnatiga asoslanadi.

XI asrda Angliya dehqonlarining asosiy qismini «Dahshatli sud kitobi»ga ko'ra 30 akr yerga ega villanlar tashkil qilgan. Ular jamoa mulkidan ham foydalangan (yaylov, o'rmon, hovuz, daryo va h.) Villanlar barshchina o'tashgan, lordga natural soliq to'lashgan. Villanlar manorlar hayotining asosini tashkil etardi. Normandlar istilosidan oldin ham, ular o'zlarining mahsulotlarining bir qismini xo'jayinlariga berar edi. Normandlar istilosidan keyin, ularning majburiyatlari aniq belgilandi. Bu majburiyatlar ikki ko'rinishda edi: barshchina va hashar. Barshchina sifatida villan haftada uch yoki undan ortiq kun manor xo'jaligida ishlab berish majburiyati edi. Mahsulot obrogi ham to'lagan. Hashar esa qo'shimcha majburiyat turi bo'lib, uni xohlagan vaqtda talab qilishar edi. Yuqoridagi soliqlardan ikkinchisi, ayniqsa malol keladigan bo'lib, uni villanlar oila a'zolari bilan birgalikda (qo'y qirqish, g'allani o'rish pallalarida) bajarar edilar. Shuningdek, villanlar qizlarini erga bersalar «nikoh boji» deb atalgan to'lov to'lardilar. Dehqonlar bundan tashqari cherkovlarga ham «o'limdan keyingi yig'im» deb atalgan soliq to'lar edilar.

Shu yerda Angliya tarixiga xos bo'lgan bir xususiyatni alohida ko'rsatib o'tish joizdir. Krepstnoy dehqonlarning ahvolini og'irlashtirishga va ularni feodal mulk egasiga yanada ko'proq

bo'ysindirishga qaratilgan qonunlarning ko'plab paydo bo'lishiga qaramasdan, feodal va villan o'rtasidagi munosabatlarda qadimgi an'analarning saqlanish ta'sirining kuchliligi vaziyatni qisman yumshatib turadigan vosita bo'lib turardi.

«Dahshatli Sud kitobi»da bordariylar, y'ani 6-15 akr yerga ega qaram dehqonlar, va 2-3 akr yerga ega kotterlar ko'rsatiladi. Kotterlar ko'pincha temirchilik, ustochilik ishlarini qo'shimcha ish sifatida bajarganlar, keyinchalik ular batraklarga aylanishgan. Ularning yerlari umumiy jamoa yer maydoni tarkibiga kirmagan. Bu toifadagi dehqonlarning ko'pchiligi krepostnoy deb hisoblansada, ammo ularning erkinlik huquqlari ko'proq saqlanib qolgan va ular feodal manori bilan chambarchas bog'lanib ketmaganlar. Ko'pchiligi bir hunarmandchilik turi bilan mashg'ul bo'lgan bordariylar va kottarlar lordlarining xo'jaligida bevosita ishlab bermasdan, ularga o'zlari yasagan biror hunarmandchilik buyumi bilan obrok to'lab turganlar. Bunday majburiyatlar to'la qullik (qaramlik) hisoblanmagan. Chunki ular monarxning amaldori nazoratidan chetda bo'lganlar.

Qaram dehqonlarning oxirgi kategoriyasini servlar tashkil qilgan. Servlar yerga, mulkka ega bo'lmay, eng og'ir ishlarni bajarganlar.

Erkin dehqonlar qatlami Angliyada istilodan keyin ham saqlanib qoladi, lekin ularning salmog'i qisqarib, huquqiy holati yomonlashadi. Erkin kishilar – frigolderlar soni asosan mamlakatning sharqiy rayonlarida va sharqiy-markaziy grafliklarda ko'p bo'lgan (bu hudud qadimda «Daniya huquqi viloyati» deb yuritilgan. Shimoli-sharqiy Angliyada, daniyaliklar o'rnatishgan mintaqada erkin dehqonlar («erkin kishilar») hali juda ko'p edi. Skandinaviyaliklar jamiyatining ancha kech

taraqqiy qilishi, sharqiy Angliyadagi daniyalik-skandinaviyalik aholida urug`chilik elementlarining saqlanib qolishi natijasida shunday hol yuz berdiki, hatto janubiy-sharqdagi angl-saks dehqonlari ilgarigi erkinlik va mustaqilligidan butunlay mahrum bo`lgan bir vaqtda ham «daniyaliklar mintaqasi»dagi dehqonlar o`z mustaqilligini bir muncha saqlab qolishgan edi. Qishloqlarda erkin dehqonlarning saqlanib qolganligi o`rta asrlarda Angliya agrar taraqqiyotning o`ziga xos xususiyati hisoblanadi. Erkin dehqon lordga ozroq pul rentasi to`lab, ba`zi majburiyatlarni o`tagan, lord yurisdiksiyasiga bo`ysungan, lekin yerga biriktirilmagan va huquqiy jihatdan erkin hisoblangan.

Bu davrda qullar tabaqasi yo`qolib borayotgan edi. Ulardan asosan qirol saroyida, lordlar uylarida xizmatchi, molboqar va yer haydovchi sifatida foydalanar edilar. 1200 yillar atrofida Angliyada qullar villanlar va kottariylar safiga singib ketadi.



Normandlar manzilgohlari. XI-XII asrlar.

XIII asrda Angliyada qishloq xo`jaligi intensiv rivojlanadi, uch dalali almashlab ekish keng tarqaladi. Mamlakat aholisining ko`payib borishi yangi yerlarni ochishga ehtiyoj tug`dirdi. O`rmonlarni tozalash

va botqoqliklarni quritib, haydaladigan yerlarni ko'paytiradilar. Flandriya va Italiyada Angliya yungiga ehtiyoj kuchayishi tufayli chorvachilik rivojlanib bordi(ayniqsa qo'ychilik.) XIII asrda shaharlar aholisining ko'payishi tufayli qishloq xo'jalik mahsulotlariga, ayniqsa g'allaga talab oshadi. Natijada feodal va dehqon xo'jaliklari bozor munosabatlariga keng kirib boradi.

XII asr oxiri-XIII asrda muntazam ichki iqtisodiy aloqalar mustahkamlanadi. XIII asrda ichki milliy bozor yaratilib, London uning markaziga aylanadi. Qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi hududlarning erta ma'lum bir mahsulotga ixtisoslashuvi mamlakat ichida savdo munosabatlarining erta rivojlanishiga yordam beradi. Janubiy, Markaziy, Sharqiy Angliya – g'alla, Shimol va G'arbiy hududlarda chorva mahsulotlari va yung etishtirgan. Tovar - pul munosabatlarining rivojlanishi xo'jalikning barshchina-krepostnoylik tizimini yemirib, ko'plab xo'jaliklarda pul rentasiga o'tiladi. Bazi pomest'elarda yerga ishlash uchun kotterlar va batraklarning yollanma mehnatidan foydalanilgan. Yirik pomest'elarda, ayniqsa cherkov votchinalarida bozor munosabatlari ta'sirida domenlar kengaytirilgan, barshchina–krepostnoylik tartiblari mustahkamlangan. Ko'proq qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish uchun jamoa yerlari, o'rmonlarni tozalash evaziga domen yerlarni kengaytirganlar.

XIII asrda pul rentasi tarqalishiga qaramasdan xo'jalikning barshchina krepostnoylik tartiblari muhim o'rin tutgan. Tovar- pul munosabatlari ta'siri ostida yirik va mayda feodallar o'rtasidagi farq XIII asrda yana ham keskinlashadi. Endi farq feodalning daromadi yoki yer miqdori bilan emas, balki xo'jalik faoliyati va siyosiy pozitsiyasi

bilan belgilanadi. XIII asrda tovar - pul munosabatlariga ritsarlar qizg'in kirib boradilar. Ularning xo'jaligida pul rentasiga o'tilib, yollanma mehnatdan foydalanilgan. Ritsarlar harbiy ishlardan xo'jalik ishlariga o'tadilar. Ichki bozorni rivojlanishidan, qirol to'lovlarini qisqartirishdan va yirik feodallarning huquqini cheklashdan, davlatning markazlashuvidan manfaatdorlik ularni shaharliklar va erkin dehqonlarning yuqori tabaqasi bilan yaqinlashtiradi. Shunga ko'ra Angliyada feodallar sinfi Frantsiyadagi va Germaniyadagi kabi yopiq toifaga aylanmaydi. Har bir erkin yer egasi 20 – 40 funt yillik daromadi bo'lsa, ritsar unvonini qabul qilib dvoryanlar qatoriga qo'shilish mumkin bo'lgan. Baronlar barshchina usulini va toifaviy imtiyozlarni saqlab qolishga harakat qilganlar.

Angliyada hunarmandchilik va savdo markazi sifatida shaharlar X–XI asrlarda paydo bo'ladi. Ammo eng qadimgi shaharlar Rim imperiyasi hukmronligi yillarida harbiy istehkom va lagerlar ko'rinishida paydo bo'lgan edi. Masalan: Kolchester, Manchester, Vinchester, Rotchester. So'nggi Rim imperiyasi yillarida Georg Veber ma'lumotiga ko'ra, Britaniyada 28 ta shahar bo'lgan. Biroq bu shaharlarning ko'pchiligi anglo - saksonlar istilosi davrida vayron qilingan edi.

«Dahshatli sud kitobi» ma'lumotlariga ko'ra Angliyaning 1,5 mln. aholisining 5% ning shaharlarda yashaganligi Angliyaning qishloq xo'jalik mamlakati bo'lib qolaverganligini ko'rsatadi. Mavjud 80 dan ortiq shahar aholisi dehqonchilik bilan shug'ullanib, qishloqlardan istehkomlari va hokimlari bilan farq qilar edilar. Hunarmandchilik asosan, London, Boston va York shaharlarida rivojlangan edi. Vilgelm I

hukmronligi davrida mamlakat hududini normandlar uslubida qurilgan to'rtburchak ko'rinishdagi qal'alar bosib ketdi.

Normandlar istilosi davrida, XI – XII asrlarda Angliya va Normandiyaning xo'jalik va savdo aloqalari rivojlanishi shaharlar yuksalishiga yordam beradi. Angliya savdogarlarining Normandiya, Flandriya bilan savdo imkoniyatiga keng yo'l ochiladi. Flandriyaga angliyaliklar yung, qalay, qo'rg'oshin keltirib sotganlar. Mamlakatning siyosiy va iqtisodiy markaziga aylangan Londonning ahamiyati ortadi. XII asrga kelib, ya'ni normandlar istilosidan keyin London shahri mamlakatning poytaxtiga aylangan edi. Vinchester, Boston, Stamford, York yarmarkalarida Flandriya, Germaniya, Italiya va boshqa mamlakatlardan kelgan savdogarlarni ham uchratish mumkin edi.

Normandlar hukmronligi o'rnatilib, Angliyaning qit'a bilan aloqasi kuchaygandan so'ng, bu yerda savdo jadal sur'atlar bilan taraqqiy eta boshladi, yarmarkalar ko'plab tashkil etildi. XI asrda shaharlar soni 80 ta bo'lsa, XIII asr o'rtalarida Angliya shaharlarining soni soni 166 taga etdi. Shunga muvofiq shahar aholisining soni ham ortib bordi: 1086 yildagi hisobga ko'ra, mamlakat barcha aholisining 5% shaharlarda yashagan bo'lsa, 1377 yilga kelib bu ko'rsatkich 12% ni tashkil etdi. Bu vaqtga kelib, London shahri aholisining soni 40 ming kishiga etdi.

Shuningdek, XIII asrda shaharlarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotidagi ahamiyati ham oshib boradi. Shaharlarda boylik to'planib boradi, davlat solig'ining asosiy qismini ular to'lashgan. Shuning uchun qirol ular bilan hisoblashishga majbur edilar. XIII asrda 200 ga yaqin shahar iqtisodiy va siyosiy huquqlari ko'rsatilgan xartiyalarga ega ekanligi buning dalolatidir. Shaharliklar asta-sekin

qirollik hokimiyatining siyosiy ittifoqchisi bo'lgan tabaqa sifatida shakllana bordi.



Tauer qasri. XI asr oxiri. XVII asrgacha qirol saroyi.

XIII asr mobaynida shahar oligarxiyasi (savdogarlar, sudxo'rlar) va shahar kambag'allari o'rtasida shahar boshqaruvida qatnashish uchun kurash davom etadi. Harmandchilikning dastlabki va keng tarqalgan turi bu yerda jundan buyumlar tayyorlash va movutchilik hisoblangan. Jun ishlab chiqarish, jun buyumlari tayyorlash va movut tayyorlash kasbi Angliyada qadim vaqtlardan beri mavjud edi. Jundan tayyorlanadigan matolarni ishlab chiqarish tashqaridan xom ashyo keltirishga bog'liq emasligi bu sohaning rivojlanishiga asosiy sabab edi.

Qo'ychilikning erta rivojlanishi Angliyada normandlar kelishdan ancha oldin, qishloq movutchiligining keng tarqalishiga olib keldi. O'sha vaqtda movutchilik uy sanoati ko'rinishida mavjud bo'lib, yirik yer egaligidagi «Qo'shimcha ishlab chiqarish» edi. Shaharlarda jamlangan movutchilik o'zining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatiga ko'ra qishloq movutchiligidan farq qilardi. Bu endi yer egaligidagi

qo'shimcha mashg'ulot bo'lmasdan, mustaqil faoliyat ko'rsatuvchi hunarmandchilikning alohida turi bo'lgan kasb edi. XII-XIII asrlarda movutchilik ingliz shaharlarining ko'pchiligiga tarqaldi. Hunarmandchilikning bu turi ayniqsa London, Vinchester, York, Linkoln, Kemridj, Norich, Oksford, Leyster kabi shaharlarda keng tarqalgan edi. Ayniqsa, Linkoln shahrida ishlab chiqariladigan alvon-qizil rangli movut o'zining sifatining yuqoriligi bilan mashhur bo'lgan. Hunarmandchilik uyushmalari bo'lgan gildiyalar ingliz shaharlarida XI asr oxiri va XII asrda paydo bo'lgan. Hunarmandchilik gildiyalari to'g'risidagi hozircha aniq bo'lgan birinchi hujjat 1130 yilga oid bo'lib, unga ko'ra hunarmandchiligi rivojlangan shaharlar qirollik xazinasiga ma'lum miqdorda soliq to'lab turganlar.

Angliyada savdo-sotiq munosabatlari va pul tizimining rivojlanishida Vilgelm I tomonidan kiritilgan o'zgarishlar muhim ahamiyatga ega bo'ldi, ya'ni tanga pul zarbxonalari bo'lgan shaharlardan monetagium deb atalgan maxsus soliq undirildi, qirolning Tauerda joylashgan bosh pul zarbxonasi mamlakat hududidagi barcha zarbxonalar uchun tanga pullarning muhrini (tamg'asini) tayyorlab beradigan markazga aylantirildi. Boshqa shaharlardagi pul zarb qiluvchilar Tauerdagi zarbxonaga kelishar va bu yerda pul to'lashib muhr sotib olishar va pul zarb qilish huquqiga ega bo'lishar edilar. Tanga pullar muhrlarini yuqori darajada tayyorlashga e'tibor berilgan. Vilgelm qirollik zargari va muhrlarni tayyorlovchi qilib, kelib chiqishi nemis bo'lgan Vilgelm fits Ottoni tayinlagan. Dastlabki anglo-normandlar qirolligi davrida bu lavozim merosiy bo'lgan.

Vilgelm I ning bu sohadagi yangi tartiblari G'arbiy Evropada anglo-normandlar tanga pullari tizimining eng takomillashgan pul tizimi darajasiga ko'tarilishiga olib keldi. Keyinchalik savdo markazlarida joylashgan shaharlar mahalliy hokimiyatlariga o'zlarining tanga zarb etuvchilariga ega bo'lishga ruxsat berildi. Yirik shaharlarda ularning soni bir nechtaga yetgan. Genrix I davriga kelganda Angliyada 94 ta tanga pul zarb qiluvchilar bor edi.

Angliya normandlar tomonidan istilo qilingach, Vilgelm I qaroqchilarni ta'qib ostiga olish tufayli Angliyaning tashqi savdo aloqasi ham jonlandi. Normandlar hukmronligi o'rnatilishi bilan Angliyaga keladigan xorijiy savdogarlar safiga ko'plab normand va flamand savdogarlari qo'shildilar. Xuddi shu davrda Angliya bozorlariga xorijdan ko'plab savdogarlar kela boshladi. Bu yerda boshqalarga nisbatan germaniyalik, flandriyalik va daniyalik savdogarlarni ko'plab uchratish mumkin edi. London Shimoliy Yevropaning savdo markazi sifatida shakllana boshladi. Uning Skandinaviya va Boltiqbo'yi bilan mustahkam savdo aloqalari yo'lga qo'yildi. Londonda Reyn savdogarlarining doimiy manzilgohlari paydo bo'ldi, keyinchalik ular safiga Ganza ittifoqiga kiruvchi shimoliy german shaharlarining savdogarlari qo'shildilar. Shuningdek, Sautgempten, Duvr, Sandvich, Ipsvich, Boston shaharlari ham chet el savdosida sezilarli o'rin egalladilar.

XII asrda Angliya uchun iqtisodiy rivojlanish davri bo'lgan va turli mamlakatlar bilan ikki tomonlama imzolangan savdo shartnomalarining soni ko'payadi. Ular o'rtasida jun (yung) bilan savdo qilish kuchaydi. Mamlakatning Vinchester, Boston, Stemford, York va boshqa

shaharlarida yarmarkalar tashkil topdi. Kembridj yaqinidagi Stoubridj degan joydagi bir yilda uch kun bo'ladigan yarmarka Yevropa ahamiyatiga ega edi. Unda lombardiyalik, venetsiyalik, genuyalik, Ganzalik, ispan va frantsuz savdogarlari o'z buyumlarini keltirib sotishgan. Ayniqsa, uchinchi salib yurishidan so'ng Angliya Italiya bilan yaqin savdo aloqalarini bog'ladi. XIV asrga kelib Angliyaning savdo munosabatlari Flandriya bilan juda rivojlangan. Shu sababli 1345-1346 yillarda Eduard Flandriya shaharlari magistratlari bilan ikki mamlakatda ham bir xilda muomalada bo'ladigan yagona pul birligi joriy etish to'g'risida muzokaralar olib borgan.

Rivojlangan o'rta asrlar davrida Angliya temirni asosan Shvetsiya va Shimoliy Ispaniyadan, gazlama va sifatli movutni asosan Flandriyadan, tuzni Shimoli-sharqiy Frantsiyadan, vinoni Gaskoniyadan, oltin, shirinliklar va ziravorlar Sharq mamlakatlaridan keltirilgan. Shunisi ajablanarliki, chetdan keltirgan tovarlar ichida qurilish uchun ishlatiladigan toshlarning (asosan Kan atrofidan) miqdori sezilarli ko'p edi.

Angliya esa chetga quyidagi tovarlarni chiqargan: jun, qo'rg'oshin, qalay va yirik qoramollar. Qishloq xo'jalik ekinlaridan chetga g'alla chiqarilgan.

La-Mansh bo'g'ozining ikki tomoni ham ingliz qirollari hukmronligi ostida bo'lganligi uchun savdogarlar uchun yo'llar boshqa yerlarga nisbatan bexavotir ediki, bu savdoning yanada rivojlanishi uchun xizmat qildi.

XI asr oxiridan boshlab savdogarlardan tashqari Angliyaga ko'plab mohir ustalar kela boshlashdi.

Qasr va cherkovlar qurdirish maqsadida normand hukumdorlari chet mamlakatlardan, birinchi navbatda, toshdan ajoyib binolar qurishda nom qozongan Normandiyalik arxitektor va tosh yo`nuvchilarini taklif qildilar. Vilgelm I Flandriya grafi qiziga uylangandan so`ng Angliyada flandriyalik tikuvchilar qishloqlari paydo bo`lishiga homiylik qilgan. Bu qishloqlar Angliyani normandlar bosib olgandan so`ng, birdaniga paydo bo`la boshladi. Bu to`g`rida «Dahshatli sud kitobi»da ham ma'lumotlar saqlanib qolgan. Masalan: Suffolkda joylashgan Flempton qishlog`i bu kitobda Flemingtun nomi bilan keltirilgan. Bu qishloqdagi qavmlar cherkovi tikuvchilar homiysi hisoblangan muqaddas Katerina nomida bo`lgan.

XI-XV asrlarda paydo bo`lgan ingliz shaharlari asosan qirollik yerlarida tashkil topgan bo`lib, ularning sen`ori qirolning o`zi edi. Yirik shaharlar qirollik domenida joylashganligi ularning o`z - o`zini boshqarish huquqi uchun kurashishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun Angliyada birorta ham shahar kommuna huquqini ololmaydi. Qirol xohlagan paytda har qanday shaharni erkinlikdan mahrum qilish va ularning meri qilib o`zining amaldorlarini tayinlashi mumkin edi. Qirol hokimiyati shaharlardan iloji boricha ko`proq daromad olishga intilar edi. Eng og`ir soliqlardan «tale» deb atalgan soliq edi.

Ingliz shaharlari siyosiy taraqqiyotining o`ziga xos tomoni shundan iborat bo`ldiki, ularning o`z ozodligini qo`lga kiritishi aksariyat hollarda qurolli kurash yo`li bilan emas, balki sen`orlari (birinchi navbatda qirol bilan) bilan moliyaviy bitimga kelishish orqali amalga oshdi.

3&. Mamlakat len tizimi va siyosiy taraqqiyotining xususiyatlari

Angliyada yirik feodallar (baronlar) bevosita qirolning vassali hisoblangan. Ular qirolga pul to'lab, harbiy xizmat o'taganlar. Vilgelm baronlardan tashqari, ularning vassali – ritsarlardan ham harbiy xizmat talab qilgan. Hamma feodallar qirolga sodiqlik haqida qasam ichishi va qirol talab qilganda harbiy xizmatga kelishi kerak edi. To'g'ridan - to'g'ri vassallik tartiblari o'rnatilishi bilan Angliyada vassallik munosabatlari nisbatan markazlashgan ko'rinish oladi. Len tizimining bunday o'ziga xosligi, qirollik domenida boy shaharlarning joylashishi, yirik hududiy knyazliklarning yo'qligi XI – XII asrlarda Angliyada qirol hokimiyatining kuchli bo'lishini ta'minlagan. Istilodan keyin mahalliy aholining normandlarga dushman kayfiyatda bo'lishi ham feodallarning qirol atrofida birlashishga majbur qilgan edi.

Markaziy hokimiyat XII asrda yana ham kuchayib boradi. Yirik feodallardan himoya izlab ritsarlar qirolni doimo qo'llaganlar. Imtiyozlar olgan cherkov ham qirolni qo'llab-quvvatlagan¹. Biroq siyosiy markazlashuvdan va iqtisodiy aloqalar rivojidan manfaatdor shaharlar qirolga eng ishonchli tayanch edi.

Bu qatlamlarga tayanib, Vilgelm vorislari davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlaydilar. Vilgelm Fotihning farzandlari Vilgelm II va Genrix I lar otalarining siyosatini davom ettirdilar. Qirollik hokimiyatining yanada kuchayishida, davlatni boshqarish markaziy tizimi rivojlantirilishida Genrix I ning (1100-1135 yy.) xizmati katta bo'ldi. Bu davrda qirollik sudi kuchaytirilib, u davlat hokimiyatining

¹ Qarang: Удальцова З История средних веков. М., «Просвещение». 1986. С.218.

tarkibiy qismiga aylantirildi. Maxsus mutaxassisliklarga ega bo'lgan qirol sud'yalari vaqti-vaqti bilan mamlakat bo'ylab safarga chiqib, grafliklarda sudlov ishlarini amalga oshirdilar. Sudlov palatasi «Qirollik sud kursisi» degan nom oldi.

Genrix I davrida qirollikning moliyaviy ishlari ham takomillashtirildi. Xazinaga doir masalalar bilan shug'ullanuvchi «Shaxmat taxtasi palatasi» deb atalgan maxsus kengash tashkil etildi. Bu kengash taxtasi atrofida xazinaga tushgan boylik hisoblanadigan bo'ldi.

Genrix I ning ichki siyosati normandlar bilan tub joy aholi bo'lgan anglo-sakslarni yaqinlashuviga olib keladi. Genrix I oxirgi anglo-saks hukmdorlari avlodidan bo'lgan Edita bilan nikohdan o'tishi ikki sulola tomonidan ham qonuniy merosxo'rga aylantiradi. Ayni vaqtda bu ikki xalqning kelgusida qo'shib ketish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Genrix I ning vafotidan so'ng o'g'il merosxo'ri bo'lmagani sababli qarindoshlari o'rtasida taxt uchun kurash kuchayib ketdi. Taxtga bir tomondan uning jiyani Stefan graf Blua, ikkinchi tomondan qizi Matilda da'vogar bo'lib chiqadilar. Yirik feodallarning taxtga davogarlarning u yoki bu tarafda bo'lishi bu toifaning ikki qismga bo'linib ketishiga va ularning markaziy hokimiyat nazorati ostidan chiqib ketishiga olib keldi. Baronlar ikki tomonga bo'linib, aholini, mamlakatni talaydilar. 1153 yildagi tomonlarning kelishuviga ko'ra, Stefan vafotidan keyin taxt Matildaning o'g'liga tegish kerak edi. 1154 yilda Genrix I ning qizi Matildaning o'g'li Genrix II Plantagenet nomi bilan Angliya taxtiga o'tirishi bilan Angliyada taxt uchun kurash tugadi. Genrix II Plantagenetning hukmronlik yillari (1153-1154-1189 yy.) Angliya feodal davlati taraqqiyotida muhim bosqich bo'ldi. Birinchi navbatda bu

davrda qirollikka tegishli hududning kengayganligini ta'kidlash zarur. Genrix II ning Shimoliy Frantsiyadagi Normandiyadan tashqari merosiylar yeri, Frantsiyadagi Anjuy xonadonining mulklari – Men, Anju, Turen, Puatu, Akvitaniya, Normandiya to'plangan. Genrix II Irlandiyani istilo qilishga kirishadi. («Anju imperiyasi» ham deb ataydilar»).

Genrix davrida Irlandiya keltlarini bo'ysindirish siyosati boshlandi. Irlandiyada XII asr II yarmida urug' - qabila munosabatlari hukm surib, qabila oqsoqollari ta'siri kuchli bo'lgan. 1171 yil qabila oqsoqollarini tor-mor keltirib, Genrix II o'zini Irlandiyaning « Oliy hukmdori» deb e'lon qiladi. Baronlar janubi - sharqiy hududlarni bosib olib, keyingi istilolar uchun tayanch platsdarmiga aylantiradilar. Bu mustahkamlangan joy «Peyl» deb atalgan («To'sib olingan joy»).

Shuningdek, Genrix II Shotlandiya qirolidan ham vassalik qasami talab etadi.

Angliyada feodal davlatini markazlashtirishda Genrix II tomonidan o'tkazilgan o'zgarishlar va reformalar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zaro urushlar davrida zaiflashgan qirollik hokimiyatini mustahkamlashga harakat qilib, Genrix II 300 ga yaqin feodal qasrlarni buzib tashlaydi, drujinalarini tarqatib yuboradi, ko'plab sheriflarni almashtiradi. O'zidan oldingi hukmdor tomonidan in'om etilgan graflik unvonlarini bekor qilib, baronlarning tartibsizliklariga chek qo'ydi. Shundan so'ng Genrix II moliyaviy ishlarni tartibga tushirish bilan shug'ullandi. Moliyaviy masalalarni tartibga solishni u juda tajribali va o'ziga sadoqat bilan xizmat qilgan, qattiqqo'l ma'muriyatchi Tomas Beketga yukladi va uni kantsler (hukumat boshlig'i) darajasiga ko'tardi.

Qirol hokimiyatini mustahkamlashda Genrix II ning sud islohotlari muhim o'rin tutgan. Qirol sudi hamma feodal sudlari ustidan shikoyat sudiga aylanadi. Ritsarlar, shaharliklar va erkin dehqonlar o'z ishlarini feodal sudidan ixtiyoridan qirollik sudiga ko'chirishi mumkin bo'ladi. Faqat evaziga ma'lum miqdorda pul to'lash kerak edi. Genrix II ning sud islohoti qirollik daromadini ko'paytiradi. Og'ir jinoiy ishlar feodal sudlari ixtiyoridan olinadi. Genrix II ning sud reformasidagi eng katta va bundan oldin bo'lmagan yangilik shu bo'ldiki, aybdorlarning gunohi to'liq isbot etilmagan taqdirda, mahalliy aholi o'rtasidan guvohlar chaqirilib (ko'pincha 12 kishi) ulardan qasamyod ostida bo'lib o'tgan voqea yuzasidan to'g'ri guvohlik talab etildi. Undan tashqari sud jarayoni maslahatchilar ishtirokida olib boriladigan bo'ldi.

Genrix II harbiy islohot o'tkazadi. Asosan chet elliklardan iborat bo'lgan yollanma doimiy armiya tarqatildi va 1181 yilda xalq lashkari tuzib(fird), ruhoniylar va yahudiylardan boshqa barcha kishilarga harbiy xizmat o'tashni majburiy qilib qo'ydi. Har bir erkin fuqaro mulkiga yarasha qurollanib harbiy yurishga chiqqan. Feodallarning harbiy majburiyati «qalqon puli» deb ataladigan pul to'lovi bilan almashtiriladi. Bu pulga qirol ritsarlarni yollagan. Natijada qirolning harbiy jihatdan feodallarga bog'liqligiga barham beriladi.

Cherkov hokimiyatini qirollikka bo'ysindirish maqsadida Genrix II cherkovni isloh qilishga kirishdi. Vilgelm I davrida ruhoniylar juda katta imtiyozlarga ega bo'lib, in'om etilgan yerlar hisobiga ularning mulki qirolga tegishli yerlarga nisbatan kengroq maydonni egallagan. Ikkinchidan, bu yerlarda yashagan kishilarning barchasi «diniy huquq» deb atalgan qonun asosida ish ko'rardilar. Genrix II cherkov islohotini

o`tkazish va bu borada ruhoniylar orasida tayanchga ega bo`lish maqsadida o`ziga eng yaqin kishi bo`lgan Tomas Beketni Kentereberiy arxiyepiskopi darajasiga ko`tardi.

XIII asrda ichki iqtisodiy aloqalar rivojlanib, Angliyaning davlat markazlashuvi davom etadi. Qirollarning markazlashtirish siyosati feodallar, shaharliklar, erkin dehqonlar tomonidan qo`llab quvvatlangan. Qirollar mamlakatdagi siyosiy kuchlar muvozanatini saqlab turishga harakat qiladilar, biroq Ioann Yersiz davriga bu muvozanat buziladi. Qirol Frantsiyaga qarshi muvaffaqiyatsiz urush olib boradi. Urushga g`oyat ko`p mablag` sarflanib, mamlakatda ijtimoiy va siyosiy keskinlikni kuchaytiradi. Angliya urushda Normandiya, Puatu, Anjuni yo`qotadi. Bu safar qirolga qarshi ritsarlar va shaharliklar ham qarshi chiqadilar. Ioann, Kenterberiy arxiyepiskopini papa roziliigsiz tayinlagani uchun Innokentiy III bilan janjallashib qolgani vaziyatni yanada og`irlashtiradi (1207 y). Papa 1212 yil maxsus bulla chiqarib Ioanni taxtdan mahrum va cherkovdan begona deb e`lon qiladi. Angliyada cherkov ibodati bekor qilinadi. Qirol o`zini papaning vassali deb tan olishga va har yili 1000 kumush marka papaga to`lashga rozi bo`ladi. 1215 yil bahorda baronlar ritsarlar va shaharliklar yordamida qirolga qarshi urush boshlaydilar. Ioann qo`zg`olonchilarning talabnomasini imzolashga majbur bo`ladi. Bu hujjat 63 moddadan iborat bo`lib «Erkinliklarning Buyuk xartiyasi» deb ataladi. O`ziga xos feodal monarxiyasi konstitutsiyasi bo`lgan bu hujjat moddalari baronlar manfaatiga mos kelgan. Xartiyada ritsar va shaharliklarga bir qadar imtiyozlar berilishi ham aks etadi. Shuningdek, Qirollik Kengashiga baron va prelatlar kirishi va ularning roziligi bilan to`lovlar joriy qilishni

qayd qilinadi. Cherkovning qirolidan mustaqilligi tan olinadi. Feodal sudlarning yurisdiksiyalari tiklanadi. Bu baronlarning mavqeini mustahkamlab, qirol sudi ta'sirini tushirib yuboradi. Baronlarni faqat perlar sud qilishi mumkinligi qayd qilingan edi. Agar xartiyaning shartlarini qirol bajarmasa, unga qarshi urush qilishga baronlarning huquqi borligi xartiyada ko'rsatiladi.

Yagona o'lchov va og'irlik birliklari, quruqlikda va suvda erkin harakat qilish huquqi qaror topadi. Mamlakatga kirib kelish va chiqib ketish erkinligi ko'rsatiladi. Bular shahar hayoti va savdo uchun ilg'or ahamiyatga ega bo'lgan. Frigolderlar to'lovi tartibga solinadi, ularning mulki daxlsizligi qayd qilinadi. Villanlardan ish qurollarini tortib olish ta'qiqlanadi. Xartiya o'z davri uchun ilg'or xujjat hisoblangan, chunki mamlakat rivojlanishini ta'minlovchi shaharliklar va ritsarlarni qirol amaldorlari va yirik feodallar tazyiqidan himoya qilgan. Ammo amalda xartiyaga amal qilinmaydi. Natijada qirol va baronlar o'rtasida urush boshlanib ketadi, lekin urush vaqtida, 1216 yilda Ioann vafot etadi. Uning yosh o'g'li Genrix III qirol deb e'lon qilinadi(1216–1272 yy.).

II BOB. XIII asrning ikkinchi yarmi – XV asrlarda Angliyaning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti

1&. Angliyada toifaviy monarxiyaning paydo bo'lishi. XIII–XIV asrlarda Angliya parlamenti

1258 yili qirol Genrix III davrida Angliyada yana qirol va baronlar o'rtasida siyosiy mojaro boshlanadi. Angliya baronlariga nisbatan mustaqilligini saqlab qolish uchun qirol frantsuz feodallariga lavozim va yerlar ulashib beradi. Shaharlar soliqlarning o'sishidan, ritsarlar va frigolderlar qirol amaldorlarining zo'ravonligidan norozi edilar. Qirolning Italiya yurishlari uchun mamlakat daromadining 1/3 qismini baronlardan talab qilishi urushga bahona bo'ladi. Baronlar va ritsarlalar qirol saroyga kirib islohotlar o'tkazishni talab qiladilar. 1258 yil baronlar Oksfordda se'zd chaqirib, o'zlarining konstitutsiyalarini («Oksford proviziyalari») ishlab chiqdilar. Unga ko'ra hokimiyat «15 baron kengashi»ga topshirilib, uning rozilgisiz qirol hech bir muhim masalani hal qilmasligi kerak edi. Baronlarning faqat o'z manfaatlari yo'lidagi faoliyatidan norozi ritsarlar va shaharliklar muxolifatdan ajralib chiqadi. 1259 yili ularning talablari «Vest–ministrlik proviziyalari» degan hujjatda e'lon qilinadi. Hujjat ritsarlar va erkin dehqonlarning o'z sen'orlari bilan munosabatlarini tartibga solgan. Baronlarning bir qismi Simon de Monfor rahbarligida ritsar va frigolderlarning talablarini qo'llab chiqishadi. Qirolga qarshi muxolifat ikkiga bo'linadi: bir qismi qirol bilan murosaga borish, ikkinchi qismi Simon de Monforni qo'llaydi. Ikki o'rtada to'qnashuv boshlanadi. Shaharliklar Simon de Monforni qo'llab, harbiy yordam ko'rsatishadi.

Ljus jangida Genrix III qo'shini Simon de Monfor qo'shinidan engilib, qirol va o'g'li asir tushadilar va 15 oy mobaynida Simon de Monfor Angliya hukmdori bo'lib qoladi.

1265 yil yanvarida Simon de Monfor qirollik majlisi chaqirib, majlisga baron va yepiskoplardan tashqari har bir graflikdan 2 ta ritsar va har yirik shahardan 2 ta vakil taklif qilinadi¹. Bu birinchi Angliya parlamenti edi. Fuqarolar urushi davom etib, dehqonlar va shahar hunarmandlarining ishtirokida qirol tarafdorlarining pomest'elari vayron qilingan, yerlar tortib olingan. Urushning keng quloqch yoyishi baronlarni qirol bilan bitim tuzishga majbur qiladi. Shahzoda Eduard asirlikdan qochganda, baronlarning katta qismi uning atrofida to'planishadi. 1265 yil Ivshem to'qnashuvida Simon de Monfor qo'shinlari tor-mor keltiriladi, lekin fuqarolar urushi davrida paydo bo'lgan parlament bekor qilinmaydi. Masalan, qirol Eduard I (1272–1307yy.) parlament chaqirib, soliqlar solish uchun ruxsat so'ragan. Qirol va baronlar, ritsarlar va shaharliklar bilan kelishmasdan endi qo'zg'olonlarni bostirib bo'lmasligini tushungan edilar. XIII asr oxirida Angliyada parlament tuzumi to'la qaror topadi. 1295 yil qirol Eduard I chaqirgan parlamentga qirol vassallari bilan birga har graflikdan ikki ritsar, yirik shahar va portlardan ikkitadan vakil taklif qilinadi. Doimiy faoliyat yuritadigan parlamentning ta'sis etilishi bilan Angliya feodal davlati toifaviy monarxiya shaklini oladi. Yirik feodallarga qarshi qirol Eduard parlamentdan foydalangan. Muhim davlat masalalarini hal etishda, soliq masalalarida qirollar ritsarlar va shaharliklar bilan maslahatlashganlar. XIV asrda parlament qonunlar chiqarish huquqini

¹ Qarang: Удальцова З История средних веков. М., «Просвещение». 1986. С.219.

oladi. 1343 yilda parlament lordlar palatasi va umum palataga bo'linadi. Lordlar palatasiga baronlar, arxiyepiskoplar, yepiskoplar, abbatlar kirgan. Ularning hammasi merosiy perlar hisoblanib, qirolning shaxsiy xati orqali parlamentga taklif qilingan. Umum palataga ritsarlar va shaharliklar kirgan. Ularning soni lordlardan ortiq bo'lgan. Ritsarlar va shaharliklarning mustahkam ittifoqda bo'lishi parlamentda ularning ta'siri kuchli bo'lishini ta'minlagan. Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bu ikki qatlamning siyosiy va iqtisodiy manfaatlarining yaqinlashuviga olib kelgan edi. Parlament va toifaviy monarxiyaning paydo bo'lishi Angliyaning siyosiy markazlashuvi va baronlar, ritsarlar va shaharliklar misolida umumdavlat toifalari qaror topganini anglatar edi. Parlament feodal davlatni mustahkamlanishiga yordam berdi. XIII – XIV asrlarda Angliya rivoji uchun parlament ijobiy ahamiyatga ega edi. U baronlarning siyosiy mavqeilarini cheklab, o'sha davrdagi ilg'or tabaqa – ritsarlar va shaharliklar manfaatini ifoda etar edi. Parlamentga shaharliklarning qatnashishi ularning huquqini tan olinishini va shaharliklar tabaqasining ahamiyati ortganini bildirar edi.

Shuni ta'kidlash kerakki, 1265 yilda parlamentning paydo bo'lishi faqat Angliya uchun emas, balki Yevropa tarixida ham yirik ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan voqeadir. Chunki, Yevropaliklar tarixida bu birinchi toifaviy, umumtabaqaviy vakillik organi edi. Parlament faoliyatidagi o'sha davrdagi mavjud kamchiliklardan qat'iy nazar, bu ijtimoiy-siyosiy muassasaning qirol hokimiyatiga qarshi muxolifat kuchlar tomonidan tashkil qilinishi va uning keyinchalik ijtimoiy-siyosiy hayotdan o'rin olib, uning tarkibiy qismiga aylanishi ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Qisqa muddat ichida Yevropaning qator davlatlarida, aynan

Angliya andozasidan Frantsiyada Bosh shtatlar, Ispaniyada korteslar kabi umumtabaqaviy vakillik kengashlarining paydo bo`lishi parlament tizimining hayotiy va tarixan zarur tizim sifatida paydo bo`lganligidan dalolat beradi.

2&. XIV – XV asrlarda Angliya qishloqlarida iqtisodiy va ijtimoiy siljishlar

XIII asrda Angliyada qishloq xo'jaligi intensiv rivojlanadi, uchdalali almashlab ekish keng tarqaladi. Mamlakat aholisining ko'payib borishi yangi yerlarni ochishga ehtiyoj tug'dirdi. O'rmonlarni tozalash va botqoqliklarni quritib, haydaladigan yerlarni ko'paytiradilar. Flandriya va Italiyada Angliya yungiga ehtiyoj kuchayishi tufayli chorvachilik rivojlanib bordi(ayniqsa qo'ychilik.) XIII asrda shaharlar aholisining ko'payishi tufayli qishloq xo'galik mahsulotlariga, ayniqsa g'allaga talab oshadi. Natijada feodal va dehqon xo'jaliklari bozor munosabatlariga keng kirib boradi.

XIV asrda Angliya qishloqlarida tovar-pul munosabatlari rivoji asosida barshchina-krepostnoylik tartiblari yemirilib boradi. Dehqon xo'jaliklari krepostnoylar mehnatiga asoslangan domen xo'jaliklari bilan muvaffaqiyatli raqobatlasha boradilar. Ko'plab feodallar XIV asr o'rtasida barshchinadan voz kecha boshlaydi. Natijada feodal va boy dehqonlar xo'jaliklarida yollanma ishchi kuchiga talab paydo bo'ladi.

1348 yil avgustidan boshlab Angliyada o'lat kasalligi tarqalib, qishloqlarda ziddiyatlar keskinlashadi. «Qora ajal» o'n to'rt oy davom etib, mamlakat aholisining 1G`3, ba'zi joylarda 1G`2 qismini olib ketadi. Ishchi kuchiga ehtiyoj yana oshadi, ish haqi ham oshadi. Ayniqsa, yollanma mehnatdan foydalangan dvoryanlar og'ir ahvolda qolishadi. Eduard III (1327-1377 yy.) hukumati 1349 yil chiqargan «Ishchi qonunlari to'g'risida ordonans»ga ko'ra, har bir 12 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkak va ayol o'z yeri va yashahs uchun boshqa

vositasi bo'lmasa, epidemiya tarqalishidan avvalgi maosh bilan ish taklif qilgan kishiga yollanishga majbur edi. Bo'ysunmaslik yoki muddatidan avval ketib qolish uchun qamoq jazosi qo'llanilgan. Ishga yollovchilar ham yuqori maosh tayinlashsa, jarima to'laganlar. «Ishchi qonunlari to'g'risida ordonans»da ishlamasdan tilamchilik va o'g'irlik qilib yurish taqiqlanadi. Hatto, tilamchilarga sadaqa qilganlarga ham qamoq jazosi beriladi. Ammo bu ordonans joylarda bajarilmadi, dehqonlar va hunarmandlar bir grafliklardan ikkinchi grafliklarga qochib o'tishni davom ettirdi. Yirik feodallar barshchinani tiklash evaziga ishchi kuchini saqlab qolishga harakat qilganlar. «Ishchi qonunlar» va feodal zulm aholining noroziligiga, sinfiy kurashning keskinlashuviga sabab bo'ladi. 1377 yil parlament 14 yoshdan oshgan har bir kishi jon solig'i to'lashi haqida qaror qabul qiladi. Bu aholining qattiq noroziligiga olib keladi va 1381 yilgi qo'zg'olonga bahona bo'ladi. Bu qo'zg'olon tarixda Uot Tayler qo'zg'oloni nomi bilan ma'lum.

Uot Tayler qo'zg'oloni boshlanishining bir qancha sabablari bo'lib, ularning asosiylaridan biri XIV asrning birinchi davrida boshlangan yuz yillik urush edi¹. Angliya va Frantsiya o'rtasidagi Yuz yil-lik urush, bu ikki davlat o'rtasidagi chuqur ildiz otib ket-gan nodo'stona munosabatlarning keskinlashib ketishi na-tijasidir. Kelishmovchilikning asosiy sababi Flandriya bo'lib, bu hudud Angliyadan jun xarid qiladigan eng katta bozor edi. Shu sababli ikkala tomon ham Flandriyaga ega bo'lish uchun jon - jahtsi bilan kurashdilar. Urush davrida flandriyaliklar inglizlar tomonida turdilar.

¹ Tileukulov S. T., Abdazimov A. A. O'rta asrlar tarixi. O'quv qo'llanma. T., 2007. 35-bet.

Yuz yillik urushning «qonuniy» sababi ham bor edi. Ya'ni ingliz qiroli Eduard III ona tomonidan Filipp IV Chiroylining nevarasi edi. Shunga asoslanib, u 1328 yilda kopetinglar sulolasi uzilib qolganda (erkak avlod tamom bo'lganda - P.Sh.) Frantsiya taxtiga da'vogar bo'lib chiqdi. Urushning dastlabki davri inglizlar uchun muvaffaqiyatli boshlandi.

Uot Tayler qo'zg'olonining boshlanish sababini 1348 yildagi tarixda «qora ajal» deb atalgan epidemiyaning tarqalishidan izlash kerak. Bu dahshatli epidemiya Angliya-ga 1348 yilning avgust oyida kirib keldi va o'n to'rt oy davomida aholining qariyb yarmiga yaqini nobud bo'ldi. Vabo kasalidan ayniqsa, London, Bristol, Gloster, Oks-ford va boshqa shaharlar katta talofat ko'rdilar. O'rta asrlar davridan saqlanib qolgan va akademik D.M. Petru-shevskiy asarida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda «Juda ko'p qishloqlar mutlaqo huvillab qolgan», «Qo'ylar va qoramollar cho'ponsiz dalalarda tentirashib yurdilar va em xashaksiz qolib, ko'plab qirilib ketdshlar».

Vabo epidemiyasining kuchayishi natijasida Angliyada ikki yirik oqibat kelib chiqdi: birinchisi, kommutatsiya jarayonini (ya'ni ishlab berish majburiyatidan pul to'lash majburiyatiga o'tish jarayonini) qisman to'xtatib qo'ydi, ikkinchidan, dehqonlarning shaxsan ozod bo'lish jarayonini sekinlashtirdi.

Aholi sonining kamayib ketishi mamlakatda, ishchi ku-chiga nisbatan katta ehtiyoj tug'dirdi. Ko'pdan beri, asosan, yollanma mehnatdan foydalanib kelayotgan mayda feodallar, ayniqsa tang ahvolga tushib qoldilar.

Uot Tayler boshchiligidagi dehqonlar qo'zg'olonining boshlanish sabablaridan yana biri, bu Frantsiya bilan Ang-liya o'rtasidagi 100 yillik urushning davom etishi bo'ldi. Urush juda katta xarajatlar talab qildi va bu xarajat-larning asosiy qismi jamiyatning quyi tabaqalarining zimmasiga tushib ularni xonavayron qiladi.

1380 yilning noyabr oyida parlament qirol Richard II ga armiyani ta'minlash uchun va qirollikni himoya qilish uchun har bir 15 yoshdan yuqori bo'lgan erkak va ayoldan jon boshiga (gadoylardan tashqari - P.Sh.) uch grot dan soliq undirishga ruxsat berdi (3 grot funtning 1G`20 qismiga teng bo'lgan - P.Sh.). Shu yo'l bilan parlament 100 ming funt sterling pul yig'moqchi edi. Richard II tomonidan e'lon qshshngan jon solig'i xalqning sabr kosasini to'ldi-rib yubordi. Bu soliq qishloqlarda dehqonlarning qahr g'azabini kuchaytirdi va 1381 yilgi qo'zg'olonga etaklagan so'ngi bahona bo'ldi.

Qo'zg'olonning boshlanishi. Qo'zg'olon 1381 yilda, Es-seks grafligidagi Fobbing qishlog'i aholisi tomonidan, nonvoy Tomas Bekker boshchiligida hukumat komissari To-mas Bemtonga (Bampton) soliq to'lamasliklarini bildirib, ularni qishloqdan haydab yuborishi bilan boshlandi. Fob-bingliklarga dastlab Kerringem va Semford qishloqlarining dehqonlari qo'shildilar. Ular dastlab hech qanday siyosiy talablarni qo'yishmasdan, faqatgina adolatsiz so-linayotgan soliqlardan ozod bo'lishi uchungina bosh ko'tar-dilar. Qo'zg'olonchilariing safi kengaydi. Sud'yalarning va sheriflarning uylarini bosib olish, yondirishlar boshlanib ketdi. Soliq teruvchilar va ularning boshliqlariga qarshi ko'tarilgan harakat tez orada qirol va uning ma'mu-riyatiga qarshi qo'zg'olonga aylanib ketdi.

Krepostnoylikni bekor qilishga qaratilgan qo'zg'olon tusini olgan bu harakat Kent, Gritford, Seffolk, Nor-folk, Kembridj va boshqa grafliklarda ham yoyildi, qo'zg'olonga Kentlik tunukasoz Uot Tayler boshchilik qildi. Ko'zg'olonchilar soni tezda 110 ming kishiga etdi. Shundan 50 ming kishi kentliklar, 60 ming kishi esseksliklar edi.

Qo'zg'olonning kengayib va kuchayib borishi bilan uning talablarining siyosiy ohangi ham o'zgara bordi. Ular mam-lakatda faqat bitta qirol - qirol Richard II bo'lishini talab qilib, hozirgi paytda hukumat qirol Richard II qo'li-da emas, balki uni qurshab olgan amaldorlar qo'lida, deb aytdilar. Qo'zg'olonchilar avvalgi tartibni o'rnatish uchun, hukumatni qo'lga olgan va undan o'z manfaati uchun foydala-nayotgan amaldorlarni qatl qilishni talab qildilar.

Uot Tayler boshchigidagi dehqonlar qo'zg'oloni davomida dehqonlar talabi ifoda etilgan ikkita programma mavjud edi va ular qo'zg'olonchilarning Mayl-End va Smitfildda qirol bilan uchrashuvlarida oldinga surildi. Bu talablar tarixda «Mayl-End» va «Smitfild programmalari» degan nom olgan.

1381 yilning 14 iyunida Mayl-End degan London chek-kasidagi kichkina bir joyda qo'zg'olonchilar talablarini qirol Richard II ga tutqazib, bu talablar yozilgan qog'ozni imzolashni talab qildilar. Bu taggablar quyidagilardan iborat edi: 1)Angliada birorta villan bo'lmasligi, ya'ni krepostnoylik bekor qilinishi; 2)Qirol tomonidan qo'zg'olonda ishtirok etganlarga umumiy avf berilishi; 3)Barchaga savdo yuritish erkinligi berilishi; 4)7 akrgacha bo'lgan erni sotib olishda uning belgilangan narxdan (4 pensdan) qimmat sotilishiga yo'l qo'yilmasligi kerak.

Bu talablarda siyosiy xususiyatga ega talablar yo`q edi. Qirol bu talablarni qondirishni bildirdi va qo`zg`olonchilarni har qaysi qishloqdan 2-4 kiitadan vakil qoldirib, tarqalishlarini so`radi. Qolgan vakillarga yuqo-ridagi talablarning qondirilganligi to`g`risidagi yorliqni topshirishni bildirdi. Esseks aholisi villanliqtsan ozod qiluvchi yorliq bilan chegaralanib, uylariga tarqab ketdi-lar. Londonda faqat Uot Tayler, Jon Boll rahbarligi ostidagi kentliklar qolishdi. Kentliklar esseksliklar-ning radikal xarakterda bo`lmagan bir taraflama talabla-ridan qanoatlanmagan edilar.

Kentliklar o`zlarining talablarini qirol oldiga Smitfild degan joyda tutqazdilar. Unda quyidagi radikal talablar oldinga surilgan edi:

1) Cherkov erlari sekulyarizatsiya qilinsin; 2) Qirol-liqda bitta episkopliqdan boshqa umuman episkoplik bo`lmasin; 3) Angliyada villanlik bo`lmasin; 4) Qiroldan boshqa barcha kishilarning huquqi teng va o`zlari ozod bo`lsinlar, ya'ni toifaviy tafovutlar yo`qotilsin; 5) O`rmon va daryolardan hamma teng foydalansin. O`rmonlarda boy senorlar va amaldorlar singari odtsiy xalq ham ov qilish huquqiga ega bo`lishi kerak va h.k.

Qirol bu talablarni ham bajarishga rozi bo`ldi, ammo qirol bilan ikkinchi uchrashuv chog`ida Uot Tayler London shahrining meri tomonidan o`ldirildi. Uot Tayler o`ldi-rilgach, rahbarsiz qo`zg`olonchilarni tor-mor qilish uncha qiyin bo`lmadi. Qirollik tomonidan tashkil qilingan ja-zo guruhlar qo`zg`olon qatnashchilarini shafqatsizlarcha qirg`in qildilar. Shu tariqa Angliyadagi eng yirik dehqon qo`zg`olonlaridan biri qonga botirildi.



Gent shahridagi graf qasri. 1180 yil.

Uot Tayler boshchiligidagi qo`zg`olonning engilishi sabablari quyidagichadir: 1) Qo`zg`olonning puxta ishlab chiqilgan aniq bir dasturining yo`qliga; 2) Qo`zg`olonchilar o`rtasida tashkiliy jihatdan uyushganlik va birlikning yo`qligi; 3) Qo`zg`olonchilarning yomon qurollanganligi va ularga yaxshi qurollangan ritsarlar armiyasining qarshi tur-ganligi; 4) Qo`zg`olonchilarning qirol hokimiyatidan o`sha davrda real amalga oshirib bo`lmaydigan talablarni bajarishni talab etganliklari¹.

Ko`rinib turibdiki, 1381 yildagi Uot Tayler qo`zg`oloni ishtirokchilarining asosiy talabi krepostnoy huquq va barshchinani bekor qilish va dehqonlarga savdo erkinligini berish edi. So`zsiz, bu erkin tovar ishlab chiqaruvchiga aylanish uchun dehqonlar talabi edi.

¹ Pirimqulov Sh. O`rta asrlarda Angliya. Samarqand. 2003. 46-bet.

Uot Tayler boshchiligadagi qo'zg'olon qonga botirilsa-da, uning Angliya va jahon tarixi uchun ahamiyatli tomonlari ham bor edi. Bu ahamiyatli tomonlar quyidagilardan iborat edi: 1. Bu qo'zg'olon bundan keyingi davrda, dehqonlarga nisbatan jabr-zulmni va soliqlarni chegarasiz darajada kuchaytirib yuborish mumkin emasligini ko'rsatdi, haddan ziyod jabr-zulm o'tkazish, ulardagi norozilikning ko'ta-rilishiga va antifeodal qo'zg'olonning boshlanishiga olib kelishi mumkinligini isbot qildi;

2. Qo'zg'olon dehqonlarning ahvolini bir muncha engillash-tirdi, ularning krepostnoy qaramlikdan qutulish jarayonini tezlashtirdi. XV asrning birinchi yarmida Angliyada ishlab berish majburiyati, XV asrning oxiri-gacha esa krepostnoy qaramlik mutlaqo tugatildi;

3. Qo'zg'olon mavjud jabr-zulmga qarshi pastki tabaqalar-ning birlashishi mumkin ekanligini ko'rsatdi.

4. Qo'zg'olon butun Evropaga dehqonlarning o'z tabaqaviy raqiblariga nisbatan birgalikda kurashishlari mumkin ekanligini ko'rsatdi.

Uot Tayler qo'zg'oloni bostirilgach, o'n yildan ko'proq nafasni rostlab olish davridan ksyin, 1394-1395 yillarda Angliya Irlandiyaga yana yurish uyushtirdi, ammo bu yurish muvaffaqiyatsiz tugadi. Natijada, xalq ommasining Richard 11 siyosatidan noroziligi kuchaydi. 1399 yilda (30 sen-tyabr) Richard II o'ldiriddi. Uning o'limi bilan Angliyada plantagenetlar sulolasi tugadi.

XV asrda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish markazi yirik feodal yer egaliklaridan o'rta va mayda feodal pomest'elariga va dehqon xo'jaliklariga ko'chadi. Domen xo'jaliklari saqlanib qolgan

joylarda batraklarning yollanma mehnatidan foydalanilgan. Pomeschchiklar domen xo'jaliklarini yo'q'tib, yerni ijaraga tarqatib berganlar. Domen xo'jaliklari qisqargandan keyin XIV asr oxirida qisqa muddatli iqtisodiy tushkunlik sodir bo'ladi: ishlov beriladigan yerlar qisqaradi, uning evaziga yaylov kengayishi, yung eksporti qisqarashi ko'rinadi. Qishloqlardagi ortiqcha aholi dehqon xo'jaliklari ko'payishi tufayli qisman yo'qoladi. Natijada qishloq xo'jalik mahsulotlari narxi tushib ketadi.

XV asrda villanlarning asosiy qismi shaxsan qaramlikdan ozod bo'ladi. Huquqiy jihatdan dehqonlar endi ikki kategoriyaga bo'linadi: kopigolderlar (manorial sud protokolidan kopiya asosida yerga egalik qiluvchilar) – villanlarning avlodlari - shaxsan ozod bo'lib, lordga belgilangan renta to'lab, ba'zi majburiyatlarni o'taganlar. Ularning yerga egaligi qirol sudi himoyasiga kirmagan. Kopigolderlar siyosiy jihatdan ham to'la huquqli emas edilar. Ular parlament saylovida qatnashmaganlar. Frigolderlar o'z yerlarining egasi bo'lib, yer uchun belgilangan pul to'laganlar. Frigolderlar qirol sudi himoyasida bo'lganlar. XV asrda dehqonlarning qatlamlarga ajralish jarayoni davom etadi. Ayrim dehqonlar boyib, kambag'allashgan dehqonlarning yerlarini sotib olganlar, pomeschchik yerlarini ijaraga olganlar. Boshqa bir qismi qishloq xo'jaligi ishlarida yollanib ishlovchilarga aylanishgan. XIV asr oxirida xo'jalik yuritishning barshchina usulini saqlab qolishga urinayotgan yirik feodallar va xo'jalikni yangicha tashkil qilgan o'rta va mayda feodallar o'rtasida ziddiyatlar keskinlashadi. «Eski dvoryanlar» deb ataladigan yirik feodallar xo'jalik yuritishning yangi sharoitlariga moslasha olmay, harbiy o'lja va davlat xazinasi hisobiga o'z

daromadlarini ko'paytirishga harakat qilganlar. O'rta va mayda yer egalari va boyib ketgan dehqonlar hamda shaharliklar orasidan «yangi» dvoryanlar shakllanadi. Ular o'z xo'jaliklarini yangicha sharoitlarga moslashtirib yuritishga harakat qilganlar.

Yangi dvoryanlar kasod bo'lgan dehqon va yirik feodallar yerlarini sotib olib, mulklarini kengaytirganlar va qisqa muddatli ijaraga berganlar. Ijaraga oluvchi almashganda narxlar o'zgarishi mumkin bo'lgan. Yangi dvoryanlar mulklarining daromadliligini oshirish uchun ekin maydonlarini kengaytirganlar, tadbirkorlik bilan shug'ullanganlar, yollanma mehnatdan foydalanganlar. Ular bozor bilan mustahkam aloqa bog'laganlar, farzandlarini hunar va savdoga o'rgatish uchun shaharga o'qishga yuborganlar. Ular o'z ahvoliga ko'ra shahar burjuaziyasiga yaqin bo'lganlar. XV asr II yarmida bu qatlamning ijtimoiy ahamiyati kuchayishiga qaramay, hali yirik feodallar mamlakat siyosiy hayotida ta'sirini saqlab qolgan edi.

XV asrda mamlakat xo'jaligida sanoatning ahamiyati orta boradi. Movut sanoatida ayniqsa rivojlanish kuzatiladi. Angliyada yuqori sifatli movut tayyorlanib, boshqa mamlakatlarga eksport qilingan. XV asrda bir qator eski shaharlarning tushkunligi (tushkunlik aholining ketib qolishi, savdo va ishlab chiqarishning kamayishida namoyon bo'ladi) va mamlakat g'arbida sanoat bilan bog'liq yangi shaharlarning rivojlanishi kuzatiladi.

Tsex tartiblariga qarshi o'laroq XIV asr o'rtalarida qishloq joylarida bozor uchun movut tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Shahar boylari, savdogarlar bu ishni tashkilotchisi bo'lishadi.

Shunday qilib, shaharlardan tashqarida tarqoq manufaktura ko'rinishida kapitalistik ishlab chiqarishning birinchi belgilari paydo bo'ladi. Vaqtinchalik tushkunlikdan keyin, XIV asrning II yarmidan boshlab Angliyaning tashqi savdosi jonlanib boshlaydi. Angliya xom ashyo eksport qilishdan movut eksport qilishga o'tadi. Mamlakat tashqarisiga eksport bilan shug'ullanish uchun tuzilgan savdogarlar kompaniyasi («savdogarlar – avantyuristlar») La – Mansh va Shimoliy dengiz hududi savdosini o'z qo'llariga oladilar, keyin ular Ganza savdogarlarini Angliya bozorlaridan mahrum qilganlar.



Bodiam qasri. Sasseks grafligi. Angliya. XIV asr oxiri.

XV asrda Angliyada Lankasterlar sulolasi hukm surardi(Ular 1399 yildan boshlab Plantagenetlar o'rniga kelgan edilar). Yuz Yillik urushda muvaffaqiyatsizliklar Lankasterlarning obro'yini tushirib yuboradi. Feodal anarxiyasi boshlanadi: yirik feodallar qasrlar qurib boshlaydilar,

(42 – betdagi rasmga qarang)vassallar to'plab, harbiy drujinalar yig'a boshlaydilar.

Feodal urushlar va tartibsizliklar yangi dvoryanlar, shaharliklar va dehqonlar manfaatiga zarar yetkazadi. Urushda Angliyaning mag'lubiyati siyosiy inqirozini kuchaytiradi. Bundan tashqari, soliqlar o'sishi, savdoning izdan chiqqanligi, feodallar o'zboshimchaligi 1450 yil Kent grafligida qo'zg'olonga sabab bo'ladi. Boy frigolder Djek Ked boshchilik qilgan bu qo'zg'olonda dehqonlar, shaharliklar va ritsarlar qatnashadilar. Qo'zg'olonchilar Londonni egallab, hukumatdan soliqlarni kamaytirishni, markaziy va mahalliy boshqarishni tartibga solishni, qirolning ba'zi maslahatchilarini haydashni, vabo kasalligi tarqalgan paytda qabul qilingan «ishchi qonunlar»ni bekor qilishni talab qiladilar. Qo'zg'olonchilar York gersogini Qirollik Kengashiga kiritishni talab qiladilar.

Hukumat talablarni bajarishga rozi bo'lgach, qo'zg'olonchilar tarqalishadi. Shundan keyin qo'shin ishtirokchilarga hujum qilib, ularni tor-mor keltirishadi. Ked asir olinadi va Londonga borishda halok bo'ladi. 1455 yil Angliyada Lankasterlar sulolasi va taxtni egallashga da'vogar bo'lgan Yorklar sulolasi o'rtasida uzoq davom etgan o'zaro urush boshlanib ketadi. Bu urush tarixda «Oq va Qizil atirgul urushi» nomi bilan ma'lum. Chunki Lankasterlar sulolasi gerbida qizil, taxtni egallashga da'vogar Yorklar sulolasi gerbida oq Atirgul tasviri bo'lgani uchun bu urush Oq va Qizil atirgul urushi deb nom oladi. Lankasterlar sulolasidan mamlakatda norozilik kuchayganligidan foydalanib, Yorklar hokimiyatni o'z qo'llariga olishga harakat qiladilar. Angliyani Shimolidagi yirik feodallar Lankasterlarni qo'llaydi. Yorklarni esa

mamlakatning iqtisodiy rivojlangan janubi - sharqidagi yirik feodallar, ularning qarindoshlari va kuchli qirol hokimiyatidan manfaatdor yangi dvoryanlar va shaharliklar qo'llaganlar. Bir necha qonli to'qnashuvlardan keyin Eduard York Londonni egallab, qirol deb e'lon qilinadi (1461 – 1483yy.) Eduard IV o'rta va mayda dvoryanlarga Lankasterlarning musodara qilingan yerlari hisobiga mulklar va unvonlar berib o'ziga yaqinlashtiradi, ularga tayanib o'zboshimcha baronlarni ayovsiz jazolaydi. Eduard IV mamlakat savdo va sanoatini rivojlantirishga harakat qiladi. Movutsozlikni rivojlantirish uchun xom- ashyoni eksport qilishni ta'qiqalaydi. Yevropa davlatlariga Angliya movutini eksport qilishda Ganza va Venetsiya savdogarlari vositachiligiga chek qo'yish uchun choralar ko'radi. Eduard IV vafot etgach, uning ukasi Richard Eduardning ikki yosh o'g'lini Tauerda qatl etib taxtni egallaydi. Richard III ning siyosati Lankasterlar va Yorklarning noroziligiga sabab bo'ladi. Ular birlashib Lankasterlardan bo'lgan Genrix Tyudorni taxtga surishadi. 1485 yil Bosvort jangida Richard halok bo'ladi. Shu urush bilan Oq va Qizil Atirgul urushiga chek qo'yiladi. 1485 yilga kelib tugagan bu urushda Angliya o'z aholisining 1/4 qismini yo'qotgan edi.

Genrix VII Tyudor Eduard IV ning qizi Elizavetaga uylanib, gerbida oq va qizil gul tasvirini birlashtiradi. Urushning og'irligi ingliz quyi va o'rta tabaqasiga tushib qolmasdan, ingliz aristokratlariga ham jiddiy talofat yetkazdi. Urushning oxiriga kelganda qirol xonadoniga qarindoshligi bo'lgan 80 ta baronlar o'ldirilgan edi. Juda ko'p yirik feodallarning nomlari mutlaqo o'chib ketdi. Oldingi normandiyalik aristokratlar yo'q qilindi, uning o'rnini anglo-saks xonadonidan bo'lganlar to'ldira boshladilar. Ammo, Yorklar xonadoni o'zaro taxt

uchun kurashlarda o'z o'rnini Lankasterlarning uzoq qarindoshi bo'lgan Tyudorlar sulolasiga bo'shatib berishga majbur bo'ldi.

Genrix VII (1485 – 1603yy.) yangi dvoryanlarga tayanib qirol hokimiyatini mustahkamlash uchun baronlarga qarshi kurash olib boradi. Bu vazifani bajarish Genrix VII ga shu bilan osonlashganki, o'ttiz yil davom etgan «Oq va Qizil atirgul urushi» davrida feodal aristokratlarning katta qismi bir - birlarini qirib yuborib, ularning o'rnini yangi dvoryanlar va qirol hokimiyatini kuchayishidan manfaatdor burjua elementlari egallashgan edi.

Angliya ilk o'rta asrlardan to XV asr oxirlarigacha boshqa Yevropa mamlakatlariga nisbatan iqtisodiy jihatdan orqada qolgan edi. Chunki undagi asosiy o'zgarishlar shaharlarda ham qishloqlarda ham ko'zga tez tashlanadigan ko'rinishda sodir bo'lmadi. Shaharlarning qishloqlardan ajralish jarayoni va qishloq xo'jaligi uchun bozorlar taraqqiyoti Angliyada o'ziga xos yo'ldan bordi, ya'ni bu jarayon juda sekin va juda ko'p hollarda to'liq bo'lmagan ko'rinishda amalga oshdi. Angliya shaharlari uzoq vaqtlar yarim agrar xususiyatlarini saqlab qoldilar.

Yuqorida aytilganidek, Angliyada dvoryanlik Frantsiya va Germaniyaga o'xshab yopiq tabaqa emasdi. Har qanday erkin jamoachi kelib chiqishidan qat'iy nazar ma'lum miqdorda yillik daromadi bo'lsa, u ritsarlik unvonini so'itb olishi va dvoryanlikni qabul qilishi mumkin bo'lgan. Angliyada ritsarlar, shaharliklar va erkin dehqonlar o'rtasida siyosiy tomondan ma'lum yaqinlik vujudga kelgan edi va bu keyinchalik mamlakatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. XIII asrda Angliyada baronlar, arxiyepiskoplar, yepiskoplar va abbatlar birgalikda feodal aristokratiyasini tashkil qiladilar.

Bu davrdagi feodal jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundan iborat bo'ldiki, ko'pchilik o'rta hol va mayda feodallar tovar-pul munosabatlariga tortila boshladilar. Ularning xo'jaliklari bozor bilan bog'langan va pul rentasiga o'tish arafasida edi. Ba'zi joylarda yollanma mehnatdan foydalanishga o'tilgan edi. XIV– XV asrlarda ingliz millatini shakllanishi uchun shart-sharoitlar: hududning umumiyligi, iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi, til birligi paydo bo'ladi.

Xulosa

Bozor munosabatlari qaror topishi sharoitida o'ta muhim va dolzarb vazifalarimizdan biri «... Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tadbiiq etish dasturi orqali yuksak zamonaviy talablarga javob beradigan, yangicha fikrlaydigan, mamlakatimizning kelajagini ishonib topshirish mumkin bo'lgan yosh kadrlarni tarbiyalash»dir¹, deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov. 73 yil hukmronlik qilgan sho'ro tarixshunosligida jahon tarixi ham buzib talqin qilindi. Jahon tarixi va umuman insoniyat tarixi urushlar, xunrezliklar, bir-birlarini mahv etish, qatl etishdan iborat qilib qo'yildi. Iqtisodiy bazis ustqurmaga nisbatan belgilovchi asosiy omil deb hisoblash, uni absolyutlashtirish inson ruhiyatining, ijodiy faolligini mensimaslikka, shaxsning umuminsoniy ideallar bilan uyg'unlashgan qadriyatlarini inkor qilishga olib keldi. Inson betakror shaxs sifatida emas, sinfnings vakili sifatida qaraldi. Jahon xalqlarining o'tmish tarixini o'rganganimizda, biz bu kabi g'oya, tarixni sinfiy kurashlar nuqtai nazaridan baholash yoki noo'rin bo'rttirib ko'rsatishlardan saqlanmog'imiz zarur. Tarix sahnasida inson o'zining fazilatlari va nuqsonlari bilan hamisha asosiy omil bo'lib kelgan. Shu sababdan o'tmishni jonli, doimiy rivojlanishda bo'lgan mujassam birlik – ya'ni insoniyat tarixini bilmay turib biz bugungi kunni tushunishimiz, bo'layotgan jarayonlarni anglab etishimiz qiyin bo'ladi. Vatanimiz tarixi jahon tarixi fanining bir qismi ekan, buni anglash yosh avlodni vatanparvarlik va baynalmilallik ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

¹ Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.10. T., «O'zbekiston», 1996, 422-b.

Jahon tarixini o`rganish natijasida boshqa millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning urf-odatlarini va tarixini qadrlash ko`nikmalari shakllanadi. Bundan tashqari, O`zbekistonning jahon xalqlari tarixida tutgan o`rnini ilmiy baholab, uni jahon hamjamiyatidagi mavqegini belgilaydi.

Tarixiy taraqqiyot insoniyatning asrlar osha to`plangan bilimlarini, ongi, maqsadlari, talablari ko`payib borishi bilan uzviy bog`liqdir. Insoniyat tarixi va taraqqiyoti haqida to`la va batafsil tasavvur, bilim hamda tushunchalarga ega bo`lish yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs bo`lib etishishida muhim o`rin tutadi. Zotan, komil inson tarbiyasi davlatimiz siyosatining ustuvor sohasidir.

Bugun ta'lim sohasida bir qancha o`zgarishlar olib borilayotgan davrda umumiy o`rta ta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari jahon tarixi fanlarini o`qitish va o`rganishning alohida vazifalari Davlat ta'lim standartlarida ko`rsatib berilgan.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., «Sharq», 1998.
2. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O`zbekiston», 1999.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., «Ma'naviyat», 2008.
4. История средних веков. (Под ред. С. П. Карпова. Издат – во Московского Университета). М., 1998.
5. Кертман Л.Е. География истории и культура Англии. М., 1979.
6. Ле Гофф. Цивилизация средневекового Запада. М., 1992.
7. Левицкий Я. А. Город и феодализм в Англии. М., 1987.
8. Нефёдов С. История средних веков. М., «Владос», 1996.
9. Поляк Г.Б., Маркова А.Н. Всемирная история. М., «Вече», 2001.
10. Фиц-Стефен Уильям. Описание благороднейшего города Лондона (Пер. и ком-мент. Н.А. Богодаровой) // Городская жизнь в средневековой Европе. М., 1987.
11. Шервуд Е.А. От англосаксов к англичанам. М., 1988.
12. Tileukulov S.T., Abdazimov A.A. O`rta asrlar tarixi. O`quv qo`llanma. T., 2007.
13. Qurbongaliyeva R. O`rta asrlar tarixi. O`quv metodik qo`llanma. T., «O`qituvchi», 1995.